

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

**BITIRUVCHI  
NARZULLAYEVA UMIDAning**

**“Ulug`bek xazinasi” romanida yozuvchining obraz yaratish mahorati  
mavzusida yozgan**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: f.f.d. A.Xolmurodov**

**Navoiy-2011**

**MUNDARIJA**  
**KIRISH**

1-BOB. Yozuvchi Odil Yoqubov nasrida tarixiy obrazlarning badiiy talqin etilishi

- 1.1. Istiqlol mafkurasi va Mirzo Ulug`bek obrazining keng qamrovliligi
- 1.2. Asarda epik tafakkur tabiatи va davr voqealarining badiiy tasviri

2-BOB. Asarda tarixiy siyemoning badiiy obrazga aylanishi va adabiy qahramon muammosi

- 2.1. Yozuvchining g`oyaviy-estetik munosabati va Ali Qushchi obrazi orqali ustozga hurmat va sadoqatning ifodalanishi.
- 2.2. Padarkush Abdulatif va uning ayanchli qismati.

**XULOSA**

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Istiqlol yuksak ilohiy ne`mat sifatida nafaqat turmush tarzimizga , balki madaniy –ma`naviy hayotimizga ham teran kirib bormoqda . Mamlakatimiz o`zining ilmiy va iqsodiy-siyosiy salohiyatini ham dunyo hamjamiyati oldida tobora yuksaltirmoqda. Qadimdan ilmu ma`rifatning beshigi sanalgan yurtimiz tarixini chuqurroq o`rganish, ajdodlar ma`naviy merosini tiklash bugungi kunning dolzarb masalalaridan etib belgilandi. Yurtdoshlarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalash yo`lidagi sa`yu harakatlar boshida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning turganligi va axloqiy- ma`naviy tarbiyaning Davlat dasturi maqomiga ko`tarilishi ham mustaqillik sharofati hisoblanadi. Mustaqillik yillarida qatag`onga uchragan an`analalarimiz , islom dini va tasavvuf , islomiy falsafa va uning jamiyat hayotiga ta`siri yuzasidan ochiq-oydin mushohada yuritish imkoniyati tug`ildi. Bu borada yurtboshimiz ta`kidlaganidek: «Xalqimiz asrlarosha yashab kelgan an`analari, urf-odatlari , tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg`unlashgan holda keljakka ishonch tuyg`usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni , adolat tuyg`usini , bilim va ma`rifatga intilishni tarbiyalash yo`lida xizmat qilmog`i lozim»<sup>1</sup>

Ma`lumki, jamiyat taraqqiyotining tub burilishida ilm-fan yuksak mavqe egallaydi. Shu bois, mustaqil mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq bu masala davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Adabiyotimizdagи hurfikrlilik va badiiy mushohadaning yangilanishi, xalqimizning shonli tarixini haqqoniy badiiy idrok etish va tasvirlash imkonining kengayganligida ham ko`zga tashlanadi. Zero ma`naviyatimizning negizi hisoblangan tarix o`zining zukkoligi bilan dunyo tamadduniga ulkan hissa qo`shgan ulug`

---

<sup>1</sup> Karimov I. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. Asarlar. 3-jild, Toshkent: «O’zbekiston»- 1996-yil, 283- bet.

bobokalonlarimiz zakovatining ko`zgusidir. Shu boisdan ham keyingi yillarda yaratilgan tarixiy mavzuda yaratilgan romanlar avvalo xalqning milliy o`zligini anglashi va ildizlari qadim millat sifatidagi g`ururining yuksalishiga xizmat qilishi jihatidan qadrlidir.

Mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgan dastlabki yillardanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-ma`naviy va madaniy merosni chuqur o`rganish, xalqimiz ma`naviy hayotiga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishi etib belgilandi.

Yutboshimiz o`zining “Yuksak ma`naviyat –engilmas kuch” asarida ajdodlarimizning Millat va xalq yo`lida, uning ozodligi uchun kurashlari, ma`naviyat va ma`rifatga bo`lgan e`tibori alohida ta`kidlanadi. Jumladan: «...Yuksak ma`naviyatga ega bo`lgan halq hech kimga hech qachon qaram bo`lmaydi, o`zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi»<sup>2</sup>, -deb ta`kidlanadi.

O`zbek adabiyotida xalqimiz tarixining eng shonli zarvaraqlarini teran badiiy tahlil qilishga bag`ishlangan bir qator yirik asarlar yaratilgan. Xalqimiz tarixining turfa bosqichlarini tasvirlash, millatimizning ijtimoiy va ma`naviy hayotida muhim rol o`ynagan iste`dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o`rnini ko`rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs munosabatini yoritish, shuningdek, davlatchiligidan tarixi va milliy qadriyatlarimizning tarixiy- hayotiy asoslarini oydinlashtirish o`zbek tarixiy romanlarining o`ziga xos milliy xususiyatlarini tashkil etadi.

Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlar, xususan, romanlar xalqimiz tarixining badiiy solnomasidir. Shuning uchun ham milliy hurlik tufayli o`zligini anglayotgan, ajdodlarining kim ekanligi, tarixiy ildizlari qaysi davrlarga borib taqalishi bilan qiziqayotgan har bir vatandoshimiz uchun tarixiy manbalar bilan bir qatorda shu mavzudagi badiiy asarlar ham g`oyat nodir tarixiy xotira sarchashmasi vazifasini o`taydi. Zero, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov juda to`g`ri ta`kidlaganlaridek, “Tarix xotirasi

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch. Toshkent, 2008 yil, 19-bet

xalqning, jonajon o`lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy, tarixini tiklash, milliy o`zlikni anglash, ta`bir joiz bo`lsa milliy iftixorni tiklash va o`stirish jarayonida g`oyat muhim o`rin tutadi”<sup>3</sup>

“Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o`zlikni anglash mumkin emas” degan g`oyat purma`no g`oyani ilgari surgan Prezidentimiz o`zlarining bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuvlarida tarixning xalqimiz va mamlakatimiz taqdiridagi ahamiyati masalasiga tamomila yangicha yondashdilar hamda haqqoniy tarixni yaratishning yangi nazariy yo`nalishlarini belgilab berdilar. Mamlakatimiz rahbarining el-yurt taqdiri, ozod va obod diyorimizning istiqbolini o`ylab aytgan bu so`zları adabiyotimizda ham tarixiy mavzu yanada chuqurroq, keng qamrovli yoritilishi, xalq va Vatan tarixinining barcha qirralari xolisona tasvirlanishiga alohida ahamiyat berish lozimligini ko`rsatadi.

Yozuvchi Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” romani yuzasidan juda ko`plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Asarning badiiy qimmati, tarixiy haqiqat bilan bog`liqlik masalasi va obrazlari tahlil etilgan. Ammo bugun tarixga munosabat tubdan o`zgardi. Shu bois Mirzo Ulug`bek va temuriylar tarixini xolisona o`rganish, “Ulug`bek xazinasi” romanidagi Mirzo Ulug`bek hayoti, fojeali o`limiga bog`liq tavsiotlarni bugungi kun nuqtai nazaridan o`rganish ishning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o`rganilish darjasи.** O`zbek adabiyotshunosligida yozuvchi Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” romani va uning o`ziga xos jihatlari ilmiy tadqiqotlar yuzasidan o`rganilgan. Bu borada adabiyotshunoslар Akrom Kattabekov, Umarali Normatov, Adolat Zayniddinova, Abdulhamid Xolmurodovlarning ilmiy tadqiqotlarni ko`rsatish o`rinli. Adabiyotshunoslар olimlar Abdulhamid Xolmurodov va Adolat Zayniddinova yozuvchi Odil

---

<sup>3</sup> I.A.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, O`zbekiston. 1997. 140-bet.

Yoqubov asarlaridagi tarixiy haqiqat va romandagi ruhiy holat tasvirini alohida tadqiq etgan.<sup>4</sup>

**Bitiruv ishining maqsadi.** Yozuvchi Odil Yoqubovning nasrida tarixiy obrazlarning tutgan o`rnini o`rganish va tarixiy voqelikning badiiy ifodalanishida obrazlilik muammolarini tadqiq etish , shuning bilan birga bugungi kunda Mirzo Ulug`bek va temuriylar tarixini o`rganilishida tarixiy , badiiy haqiqatlarni tahlil etish bitiruv ishining maqsadini tashkil etadi.

**Bitiruv ishining vazifalari.** Mirzo Ulug`bek, Ali Qushchi, Mirzo Abdullatif obrazlarining roman syujetida tutgan o`rnini tadqiq etish va o`tmish voqeligini bugungi kun nuqtai nazaridan o`rganish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- tadqiqot mavzusi yuzasidan yaratilgan barcha ilmiy ishlarni o`rganish, tahlil etish va ularga munosabat bildirish;
- romanning tarixiylik jihatini bugungi istiqlol mafkurasi asosida tahlil etish;
- Mirzo Ulug`bek va Abdullatif obrazlarining ichki dunyosi va hissiyot olamidagi o`zgarishlar asosida tekshirish;
- asarda tarixiy siymoning badiiy obrazga aylanishi va adabiy qahramon muammosini tahlil qilish;
- yozuvchining g`oyaviy-estetik munosabati va Ali Qushchi obrazi orqali ustozga hurmat va sadoqatning ifodalanishi ko`rsatib berish.

**Bitiruv ishining ilmiy yangiligi.** Ijtimoiy munosabatlarning yangilanishi, ma`naviy olamdagи o`zgarishlar badiiy asarlarni yangicha o`rganishni taqozo qilmoqda. “Ulug`bek xazinasi” romaniga ham bugungi kun talabi bilan yondashish, obrazlarning ong oqimi yuzasidan tahlilga tortish ishning kichik yangilagini belgilaydi. Shu bilan birga Ulug`bek obrazining yaratishdagi yozuvchining badiiy mahoratini ko`rsatib berish, Abdullatif va Mirzo Ulug`bek munosabatlaridagi keskinliklar sabablarini ularning ruhiy-

---

<sup>4</sup> Zaynidinova. A. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, 1999 ; Xolmurodov A. Muqaddas so`z boqiyligi. Toshkent, 2006: YAna shu muallif . Roman va ruhiyat, 1998.

ma`naviy olamidagi o`zgarishlar orqali tahlil etish ham bu boradagi yangicha qarash ekanligini ko`rsatadi.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** O`zbek adabiyotshunosligida obraz va obrazlilik masalalari keng o`rganilgan ilmiy-nazariy adabiyotlar, Odil Yoqubov hayoti va ijodiy faoliyati hamda romanlari tahlil etilgan tadqiqotlar ishning manbasi hisoblanadi. Tadqiqot ob`ekti sifatida Odil Yoqubovning turli yillarda nashr etilgan “Ulug`bek xazinasi” romani va istiqlol yillarida to`ldirilib qayta nashr etilgan ( O.Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1994-yil) romani olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi Kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tarkib topgan.

## I BOB

# YOZUVCHI ODIL YOQUBOV NASRIDA TARIXIY OBRAZLARNING BADIY TALQIN ETILISHI

### 1.1. Istiqlol mafkurasi va Mirzo Ulug`bek obrazining keng qamrovililigi

Odil Yoqubov ijodida o`rin olgan asarlar tarixiy va zamonaviy mavzuda bo`lib, “Ulug`bek xazinasi”, “”Ko`hna dunyo” romanlarida hamda istiqlol yillarida yaratgan “Muzaffar Temur” dramasida tarixiy voqelik, “Diyonat”, “Oq qushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili” , “Osiy banda” romanlarida esa yaqin o`tmish, turg`unlik yillari voqealari tasvirlangan.

Odil Yoqubovga shuhrat keltirgan asarlar tarixiy romanlari- “Ulug`bek xazinasi” bilan “Ko`hna dunyo” bo`ldi. Adabiy tanqidchilikning bahosiga ko`ra , “Odil Yoqubovning “Ko`hna dunyo” romanining markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirlari, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib dolzarb ma`no bag`ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo`yilmagan. Odil Yoqubov tarixni xuddi ko`rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlariga uzoq o`tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo`ladi. U tarixga bugangi davr nuqtai nazaridan qaraydi”.<sup>5</sup>

Milliy istiqlol tufayli xalqimiz o`zining haqqoniy tarixiga ega bo`ldi. Istiqlol ilgari el ko`zidan yashirib kelingan qadriyatlarimiz ,munavvar tariximizda yorqin iz qoldirgan ulug` ajdodlarimiz merosi, bobolarimiz tafakkurining beba ho durdonalaridan bahramand bo`lish imkonini berdi. Badiiy adabiyotda uzoq va yaqin o`tmish voqeligini aks ettiruvchi asarlar yaratila boshlandi. Tarixiy mavzudagi o`zbek nasri, xususan, romanchilik

---

<sup>5</sup> N.Karimov va boshqalar. XX asr adabiyoti tarixi. Toshkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 1999 yil, 415-bet

Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar”, Oybekning “Navoiy”, “Qutlug` qon” keyinchalik O.Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi”, “Ko`hna dunyo”, P.Qodirovning boburiylar tarixiga doir “Yulduzli tunlar” hamda “Avlodlar dovoli” asarlarida to`la ma`noda o`z aksini topgan.

O`zbek adabiyotida ham o`tmish haqida asar yozishda tarixiylik bosh mezon bo`lishi lozimligini ,tarix ne-ne avlodlarni kamol toptiradigan ulug` murabbiy ekanligini angladilar<sup>6</sup>.

Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi”, “Ko`hna dunyo” romanlarida tarixiy syujet tuzilishining o`ziga xosligi,tarixiy voqelikning badiiy haqiqat uyg`unligida tasvirlash yo`sining takrorlanmasligi,obrazlar tizimining keng ko`lamligi bilan adabiyotimiz tarixida alohida qimmatga ega.

Ulug` olim Mirzo Ulug`bekning bosib o`tgan ibratli hayoti va fojeali taqdiri to`g`risida qator tarixiy, nasriy, she`riy asarlar, dramalar yaratilgan. Bu borada Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug`bek” fojeasi hamda Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” romanlarini alohida e`tirof etish o`rinli. Har ikkala asar ham buyuk insonning ma`rifatli hayoti va fojeiy taqdirini badiiy talqin qilishga qaratilgan. Bu asarlarda Mirzo Ulug`bekning qirq yil taxt tebratgan va qilich qo`lidan tushmagan hukmdorgina emas, yulduzlar bilan til topishgan ,o`z qo`li bilan rasadxona yaratib, yulduzlarning joylashish o`rnini belgilab chiqqan, o`nlab fidoyi shogirdlar tayyorlab ilm-fan sohasiga katta hissa qo`shgani, u qilich kuchiga emas, ilm-ma`rifat kuchiga ,dunyonи qora kuch emas, go`zallik o`zgartirishi mumkin degan aqidaga sobit Inson sifatida tasvirlanadi.

«Ulug`bek xazinasi» 1970- 1973-yillarda yozilgan, 1974 -yilda alohida kitob bo`lib chiqqan edi. Shundan beri asar qayta-qayta chop etildi, jahonning ko`plab tillariga tarjima qilindi, jahon bo`ylab dovrug` qozondi. SHunga qaramay adib roman ustidagi ijodiy ishini davom ettirdi

---

<sup>6</sup> Zayniddinova A. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1999 yil, 8-bet.

Mustaqillik yillarda Odil Yoqubov “Ulug`bek xazinasi”<sup>7</sup> romanini ulug` olimning tavallud to`yi munosabati bilan qayta ishlab, to`ldirib, qayta nashr ettirdi. Unda allamomaning shaxsiy hayoti, fojeaviy qismati, Ulug`bek umrining so`nggida musharraf bo`lgan sevgisi, sohibqiron bobosi Amir Temur haqidagi xotiralar va boshqa ba`zi bir lavhalar bilan boyitildi.

Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov «Ulug`bek xazinasi» haqida shunday yozadi: «Yaxshi kitob haqida yozish maroqli. Bu yuksak va oljanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdur bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shuki, romanni o`qir ekanman, ko`nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg`usi jo`sh urdi. Ulug`bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, zaminda tutgan mavqeimizga guvoh. Ulug`bek — bizning dildagi ohimiz, hasratimiz, u buyuk insoniy tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib mulohaza yurituvchi, hukm-saboqlar uchun asos beradigan shaxs...»

Ulug`bek men uchun o`rta asrning atoqli olimi bo`lgani uchungina emas, balki xalqlarimiz tarixidagi eng murakkab va og`ir fofiani boshdan kechirgan alloma bo`lgani uchun ham ulug`dir»<sup>8</sup>.

Romanning markazida davr haqiqatini butun salobati bilan ochib beruvchiadolatli va ma`rifatparvar shoh Ulug`bek obrazi turadi. Odil Yoqubovning bu romani yozilguniga qadar o`zbek tarixiy romanchiligida voqelikning tarixiy mohiyatini yaxlit holda ifoda eta oluvchi shoh obrazi yaratilmagan edi. Yozuvchi o`z bosh qahramonini tugal va mukammal adabiy tip darajasiga ko`tarishda shohlar olamiga daxldor bo`lgan hayotiy tarixiy haqiqatlarni ochish yo`lidan boradi. Roman ikki qismdan iboratdir. Birinchi qism Ulug`bekning fofiasi bilan tugasa, ikkinchi qism padarkush Abdulatifning fofiasi bilan tugaydi. Ko`rinadiki romanda har biri o`zicha tugal

<sup>7</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. (To`ldirilgan qayta nashri)-Toshkent. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1994-yil.

<sup>8</sup> U.Normatov. Yangi o`zbek adabiyoti. (O`quv qo'llanma)-Toshkent, “Universitet”, 106-bet

va mukammal bo`lgan ikkita shoh obrazi yaratilgan. “Ular hayotda nimaga intilish lozim, haqiqat nima?”- degan savollarga o`z e`tiqodlari va hayotiy maslagiga tayanib javob beruvchi tarixiy shaxslardir. Shu boisdan ham yozuvchi ularning o`ziga xos adabiy tipini yaratar ekan, badiiy to`qimada hayot haqiqatidan chetga chiqib ketmaslik lozimligiga alohida e`tibor beradi. Chunki, badiiy to`qima asardagi g`oyaviy va hayotiy mazmunni tarixiy-hayotiy materiallarga tayanib qayta jlonlantirishda ham, shuningdek, asarning badiiy shakliga daxldor bo`lgan syujet unsurlari olamining kashf etilishida ham yetakchi mavqedha turadi. Chunki, badiiy asar maishiy turmushning oddiygina ko`chirmasi emas, balki ana shu hayotiy voqelikdan olingan taassurotning adib badiiy niyati asosida “qayta ishlangan” ko`rinishidir. Yozuvchi uchun bosh qahramon faoliyati ko`rsatadigan zamon va voqealar bo`lib o`tadigan makonni belgilab olish badiiy tuqimaning eng mas`uliyatli lahzasidirki, voqelik talqinining zamon va makon belgisi hal qilingach, asarning mazmuni va shakl birligini ta`minlash imkoniyati yuzaga keladi.

O.Yoqubov ham M.Shayxzoda tajribalaridan bahramand bo`lgan. Roman bilan tragediya orasida talay umumiylilar mavjud. Chunonchi, roman ham xuddi tragediya kabi Ulug`bek hayotining so`nggi davrini hikoya qilishdan boshlanadi, tragediyadagi ko`pgina shaxslar bu yerda ham ishtirok etadilar. Shu bilan barobar «Ulug`bek xazinası» tarixiy voqealar, shaxslarning badiiy talqini, o`zining usulbiy, g`oyaviy-badiiy yo`nalishi jihatidan «Mirzo Ulug`bek» tragediyasidan keskin farq qiladi.

Mirzo Ulug`bek sultonlik taxtidan ketyapti. Shu og`ir, fojiaviy daqiqalarda u ko`p narsalar to`g`risida o`ylaydi, murakkab ruhiy holatni boshdan kechiradi. Avvalo u — shaxs, temuriyzoda, toj-taxt taqdiri uchun javobgar shaxs, nima qilib bo`lsa-da u hokimiyatni qo`lda saqlab qolish uchun tirishadi; ammo u riyokor, johil raqiblar qurshovida, o`z o`g`li ular qo`lida qo`g`irchoq, toj-taxt deb otaga qarshi bosh ko`targan. Bu hol buyuk allomani adadsiz qiyonoqlar gardobiga tortadi. Ulug`bekda insoniy g`urur juda kuchli. Shohlik qoni jo`sh

urib toj-taxt himoyasi uchun o`g`liga qarshi jangga otlanar ekan, nomus tuyg`usi uni qiyonoqqa soladi, el-yurt, kelgusi avlodlar oldida bunday nomaqbul ishga qo`l urganligi uchun or qiladi, yomon nom qoldirishdan qo`rqadi. Mirzo Ulug`bek — tanti, oljanob odam, munosib merosxo`r topilsa, toj-taxtni yaxshilikcha topshirishga ham tayyor; biroq avlodida bunday kimsa yo`q. Abdullatif — riyokor, yana bir o`g`li Abdullaziz majruh, kaltabin shaxs. Ota toj-taxtni ularga topshirolmaydi. Ulug`bekni hammadan ham Movaraunnahrga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan asosiy boyligi — madrasasiyu rasadxonasi, nodir xazinasi — to`plagan kutubxonasi-yu yaratgan asarlari — barchasining zeru zabar bo`lish xavfi tashvishga soladi...

Toj-taxt bebaqo, tafakkur esa bezavol, mangu degan hikmat bor. Bu hikmat romanda chiroyli, betakror badiiy ifodasini topgan. Ulug`bekning fojiasi shundaki, u egalik qilgan moddiy meros — toj-taxtning istiqboli zabun, vorislari nobakor, o`z o`g`lidan tortib qo`l ostidagi barcha mansabdorlari, ishongan tog`lari xiyonatkor bo`lib chiqadilar. Bu allomaning baxti shundaki, u to`plagan, yaratgan ma`naviy merosning munosib vorislari, ishongan, sadoqatli, jonkuyar shogirdlari bor. Eng og`ir daqiqalarda ana shu vorislar Ulug`bek tashvishiga sherik, dardiga hamdard bo`ladilar. Ulug`bek merosini ko`z qorachig`idek asrash, avaylashga so`z beradilar.

Ulug`bek taxtdan tushadi, hokimiyat tepasiga johil, mutaassib qalloblar qo`lida o`yinchoq Abdullatif keladi, qora kuchlarning davri davroni, ma`rifat ahlining esa qora kunlari boshlanadi. Romanning ikkinchi qismi ana shu qora kunlar tasviri va tahliliga bag`ishlangan. Yozuvchining mahorati, ayniqsa, shu qismda yaxshi namoyon bo`lgan.

Bir tomonda Abdullatif boshliq qora guruhlar — shayx Nizomiddin Xomush, Salohiddin zargar, Amir Jondor, ayg`oqchi Qashqir... Ikkinchi tomonda Ali Qushchi boshliq ma`rifat fidoiylari... Ulug`bek xazinasini o`sha dahshatli kunlarda qora guruhlar nazaridan, tahdid va ta`qibidan himoya qilish uchun kechgan shiddatli, xatarli kurashda keng xalq ommasi vakillari —

madrasa talabasi yosh shogird Miram Chalabiydan tortib xalq orasidan chiqqan shoir Qarnoqiygacha, oddiy temirchi usta Temur Samarqandiydan tortib ma`rifatli ayol Xurshida Bonugacha — barcha ishtirok etadi. Bu bilan yozuvchi muhim g`oyani — Ulug`bek ma`naviy merosi xalq mulki ekanligini ta`kidlaydi.

O`sha og`ir sinov paytida maslakdosh shogirlar orasida ham saralanish yuz beradi, chunonchi, mavlono Muhiddindek olim mudhish voqealar oldida dovdirab, o`z ustozidan yuz o`tiradi, fanga, e`tiqodiga xiyonat qiladi.

Bular asarda shunchaki bayon etilgan emas, balki munosib badiiy ifodasini topgan. Muallif bu romanda tarixiy janrning yaxshi an`analarini davom ettirgan, ularga sayqal bergen.

Bizda tarixiy janrning ikki ko`rinishi bor. Bir tur asarlarda tarixiy faktlarga izchil rioya etiladi; tarixiy hodisalarни badiiy gavdalantirish yozuvchining asosiy muddaosiga aylanadi; ikkinchi tur asarlarda esa tarixiy faktlar, shaxslar asos qilib olinadiyu, tarixiy faktlarning izchil ifodasi, tarixiy shaxslarning bat afsil biografiyasi emas, balki shu faktlar bahonasida muayyan ijtimoiy-axloqiy muammolar ko`tarish, tarixiy faktlar orqali «gap aytish» birinchi o`ringa chiqadi<sup>9</sup>. «Ulug`bek xazinasi» romani keyingi turga mansub.

«Ulug`bek xazinasi»ning tasvir ritmikasi, boshqa tarixiy asarlarnikidan farqli o`laroq, xiyla tezkor, shiddatli. Asarda o`tkir dramatik kartinalar, ichki ruhiy kechinmalar, xarakterlar va g`oyalarning oshkora to`qnashuvi asosiga qurilgan yorqin lavhalar ko`p. Bir tomondan, romanda biz talay kuchli ruhiy kolliziylar tasvirini o`qiymiz. Ulug`bek izardiroblari, Abdullatifning ota o`limidan keyingi vasvasayu ruhiy qiynoqlari, xususan, bog`dagi so`nggi kechadagi dahshatli holati butun keskinligi bilan berilgan. Ikkinchi tomondan, yozuvchi xarakterlararo to`qnashuv tasviriga ham katta e`tibor bergen. Ulug`bekning shayx Nizomiddin bilan musohabasi, o`g`li Abdullatif bilan yuzma-yuz to`qnashuvi, Ali Qushchi bilan Mavlono Muhiddin

<sup>9</sup> S.Mirzayev. Saylanma.(O`zbek romançılıigi tarqqiyoti) -Toshkent, 2007-yil, 89-bet

o`rtasidagi dahanaki janglar, zindondagi tortishuvlar, olimning Abdullatif bilan takror-takror to`qnashuvlari — bular shunchaki olishuv, tortishuvlar bo`lmay, bir-biriga zid xarakterlarning, ashaddiy raqiblarning, turli g`oya, e`tiqodlarning to`qnashuvidir.

Roman badiiy qurilish jihatdan puxta ishlangan. Voqealar, xarakterlar silsilasi izchil, bir-biri bilan mantiqan puxta bog`langan, bir voqealardan ikkinchisi oqib kelaveradi.

Tarixiy romanning vazifasi faqat tarix haqiqatini jonli, haqqoniy gavdalantirish emas, balki o`tmish saboqlarini yodga tushirishdan ham iboratdir. Odil Yoqubov fikricha, insoniyat hamisha o`zi bosib o`ggan yo`lga bot-bot nazar tashlab turishi, undan tegishli saboqlar chiqarishi lozim. «Ming afsuski, o`tmishning achchiq saboqlari goho unutiladi, tarixda yo`l qo`yilgan xatolar takrorlanib turadi»<sup>10</sup>, — deydi adib.

Keyingi yillarda ulug` ajdodlarimiz merosini chuqurroq o`rganishga kirishildi. Mirzo Ulug`bek yaratgan kashfiyotlari, dunyo ilm-faniga qo`sghan olmshumul ahamiyati nafaqat xalqimizning, bulki jahon fani rivojigaga qo`shilgan katta hissasi ekanligi e`tirof etilmoqda.

## **1.2. Asarda epik tafakkur tabiatini va davr voqealarining badiiy tasviri**

Har bir yirik adibning ijodini ko`z-ko`z qiladigan bosh kitobi bo`ladi. Bu bosh kitob qaysi mavzuni (tarixiy yoki zamonaviy) qalamga olmasin, bari bir, davrning ijtimoiy, siyosiy va ruhiy kartinasini o`zida ifoda qiladi “<sup>11</sup>-deb yozadi adabiyotshunos P.Shermuhamedov.

Odil Yoqubovning ijodini belgilaydigan bosh asari xususida so`z ketsa, tabiiy ravishda, uning tarixiy va zamonaviy mavzudagi asarlariga diqqat

---

<sup>10</sup> Qarang: “O’zbekiston madaniyati” gazetasi, 1988 yil, 27-yanvar soni

<sup>11</sup> Pirmat Shermuhamedov. Istiqbolni o’ylab (Adabiy-tanqidiy maqolalar)-Toshkent, 1987. 152-bet

qaratiladi. Ammo ijodkorning “Ulug`bek xazinasi” romanini uning san` atkorlik mahoratini o`zida yaqqolroq ko`rsatgan asaridir.

Ma`lumki, Odil Yoqubov «Ulug`bek xazinasi» romanini ayni ijodiy kuch-quvvatga to`lgan bir paytda yozdi. Unutmaslik kerakki, tarixiy roman janri adib ijodiy izlanishlari uchun mutlaqo yangi muhit edi. Zamonaviy mavzuda hikoyalar, qissalar, dramalar, romanlar yozib tanilgan yozuvchining chuqur tarixiy qatlamlarni, holatlarni, insoniy fe`l-atvor, odatlarini, etnografik detallarni, tarixiy shaxslar qo`llagan tilni, urf-odatlar, udumlarni idrok qilishi, o`rganishi zarurki, bu o`ta qiyin va mashaqqatli ishdir.

«Ulug`bek xazinasi» roman xususida so`z yuritish — nainki tarixiylik, balki zamonaviylik xususida ham so`z yuritish demakdir. Bu esa zamonaviylik tarixiy asar uchun nihoyatda zarur ekanini tasdiqlaydi. Hech kimga sir emaski, so`nggi yillar adabiyotida bugungi kun talablari, ehtiyojlariga xizmat qilmaydigan ko`pgina tarixiy asarlar yaratildi. Binobarin, haqiqiy tarixiylik, muallifning ma`naviy ehtiyojiga aylangan ijtimoiy va axloqiy konsepsiyasiz amalga oshmaydi. Aks holda, tarixiy voqealarga murojaat qilishning ahamiyati bo`lmaydi.

Roman Ulug`bek hayotining eng so`nggi daqiqalari tasviridan boshlanadi. Mirzo Ulug`bek toju taxtidan, el-yurtidan, suykli mashg`uloti— ilmiy ishlaridan umrbod mahrum bo`lish arafasida. O`z pushtikamaridan bo`lgan farzandi, shahzoda Abdullatif Samarqandga lashkar tortib kelmoqda. Shayx Nizomiddin Xomush yanglig` johil ruhoniylar qo`lida bir qo`g`irchoq bo`lgan o`g`lining niyati mudhish: u otasi yoqqan ma`rifat mash`alini so`ndirib, elni zulmat qa`riga otmoqchi va hatto buyuk padarini qatl etish niyatidan ham qaytmaydi. Inson uchun umrining oxirida o`zi barpo qilgan ishlarining poymol bo`lishini ko`rishdan ham og`ir musibat bormi?

Odil Yoqubovning «Ulug`bek xazinasi» romanini buyuk olim hayotining mana shunday eng dramatik daqiqalaridan boshlanadi. Bunday og`ir va qaltis vaziyatda ulug` olim nimalarni o`yaydn? Saltanatinimi? Ha, albatta!

Mutaassib, razil farzandi bilan jang qilib, toju taxtini asrab qolishnimi? Ha, buni ham o`ylaydi. Qonida hokimlik ishqisi gupirib turgan shoh toju taxtning abadul abad qo`lidan ketayotganini o`ylab chuqur iztiroblar chekadi. Lekin, ayni bir zamonda, o`z davrining buyuk allomasi Mirzo Ulug`bek qilgan ilmiy ishlari, qurban madrasalari, o`zi yoqqan ma`rifat mash`ali so`nib qolishidan tashvishga tushadi, buni o`ylab ich-ichidan zil ketadi. SHu sababli, eng ishonchli odam sifatida suykli shogirdi Ali Qushchini o`z oldiga chaqirtiradi. Unga umr bo`yi yiqqan xazinasi — beba ho kitoblarini e`zozlab saqlashni tayinlaydi, hamon ezgu niyatlarini nihoyasiga yetkazishdan umidini uzmaydi.

Yuqorida qayd etib o`tganimizdek, Odil Yoqubovning «Ulug`bek xazinasi» romanidagi chigal tarixiy vaziyat shundan iborat ediki, goh saroy hayotiga sho`ng`isak, goh davlat ichida davlat qurmoqchi bo`lgan ruhoniylarning yovuz kirdikorlari shohidi bo`lamiz. Dam johil, mutaassib shayxlarga qarshi bosh ko`targan Ali Qushchi kabi fidoyi allomalarining madrligi va jasoratini ko`rib tahsinlar aytamiz, dam ilmiy xazina xatar ostida qolganda yordamga qo`l cho`zgan usta Temur Samarqandiy kabi oddiy temirchilar va kosiblarning mardona ishlariga qoyil qolamiz. Xullas, yozuvchi o`sha murakkab davrni keng va to`g`ri yoritib berishga harakat qiladi. Eng muhim, adib voqealarni shunday tanlaydiki, bu vaziyatlarda faqat Ulug`bek yashagan davrning muammolarigina tadqiq qilinib qolmasdan, balki bu-gungi kun uchun muhim bo`lgan jiddiy axloqiy masalalar ham o`rtaga tashlanadi. SHu boisdan bo`lsa kerak, Ulug`bekning insoniy fazilatlari uning tarix va zamon haqidagi, ilm-ma`rifatning kelajagi haqidagi tinimsiz o`ylari, kechinmalari, iztiroblari bugungi kitobxonni ham o`ylantiradi, hayajonga soladi.

Odil Yoqubov Mirzo Ulug`bek obraziga faqat bir tomonlama yondashmaydi. Uni faqat ulug` olim va donishmand sifatidagina ko`rsatmaydi, balki Ulug`bek ham o`z zamonasining ulug` farzandi ekanini, buyuk olim

bo`la turib, toju taxtdan voz kecha olmagani, ya`ni ma`lum darajada cheklangan odam ekanini ham ko`rsatishga intilgan. Ulug`bek kitobxon ko`z oldida birda chuqur mushohadali o`tkir alloma sifatida namoyon bo`lsa, birda Xurosonda vayronalarga yo`l qo`ygan shafqatsiz shoh, birda jang ishqida yongan lashkarboshi bo`lsa, birda xiyonatkor o`g`li oldida tiz cho`kishga ham tayyor turgan zaif odam sifatida gavdalanadi. Uning bu zaifliklari goho kitobxonda e`tiroz ham uyg`otadi. Lekin Mirzo Ulug`bek «zaif» paytlarida ham tinmay o`playdi, tinmay mushohada qiladi, voqealarga ulug` donishmand sifatida nigoh tashlaydi, bu hodisa uning obrazini «maydalashtirib» yubormaydi. Shu jihatdan Ulug`bek bilan uning o`g`li Mirzo Abdullatif munosabatlari juda xarakterlidir.

Abdullatif fojiali, ammo yirik shaxs. Shu o`rinda Shohruhning o`n besh yoshli o`g`li Mirzo Ulug`bekka Movarounnahrning inon-ixtiyorini topshira turib aytgan nasihatini tilga olib o`tish joizdir. «Payg`ambar varislari bo`lmish ulamolarni ehtirom ko`zi tagiga olib, in`om nazari bilan mamnun tutgin, diniy mojarolar bo`yicha ularning fatvosini chetlab o`tmagin... Olam obodonligining sababi va odamzod rizqining vositasi bo`lmish dehqonlarni zulmu adolatsizlikdan himoya qilib, adlu insof bilan yaqin qilgin...»<sup>12</sup>

Ulug`bek bilan Abdullatif oralarida bo`ladigan bahslar va munozaralar shunchaki mansab uchun, toju taxt uchun kurashayotgan ikki hokimiyatning munozarasi bo`lib qolmay, balki uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan nur bilan zulmat orasidagi kurash darajasiga ko`tarilgan va davrning dramasiga aylangan ziddiyatlardir.

Romanda esda qoladigan va hatto ayrim jihatlari bilan Ulug`bek obrazini to`ldiradigan qahramonlardan biri Ali Qushchidir. Yozuvchi uni eng qiyin vaziyatlarda tasvirlaydi.

---

<sup>12</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 94-bet

Ali Qushchining Mirzo Ulug`bek bilan qilgan muloqotlari, ilmiy bahslari, insoniy iztiroblari kitobxon ko`z o`ngida ro`yi rost gavdalanadi. Ali Qushchi ustozining fojiali taqdirini o`ylab, iztirob chekadi: «Nechun hamma davri davron, hamma davlat, hamma shoh va fotihlarning tarixini besh qo`lday biladigan bu zukko donishmand toj va hokimiyat hech bir kimsaga vafo qilmaganinn tushunmadi yoxud tushunsa-da, uni tark ztishga irodasi yetmadi».<sup>13</sup>

Ali Qushchining favqulodda dramalar bilan yo`g`rilgan hayoti va hayat sinovlarida ko`rsatgan matonati uni bizga, zamonamiz qahramonlariga yaqinlashtiradi. SHuning uchun ham Ali Qushchining hayoti va kurashi romanda ilgari surilgan ziyo bilan zulmat orasidagi kurashga aylanadi. Ayni zamonda, uning mavlono Muhiddin bilan qilgan bahslarida yuksak axloqiy masalalar ko`tariladiki, bu ham romanni bugungi kunga hamnafas qiladi.

«Ulug`bek xazinasi» romanida Ulug`bek, Abdullatif, Ali Qushchi singari tarixiy shaxslar bilan birga yozuvchi xayolining kuchi bilan yaratilgan va asar g`oyasini ochishga xizmat qiladigan to`qima obrazlar ham anchagina. Buyuk rus tanqidchisi V. G. Belinskiy tarixiy mavzuda yozilgan romanlar xususida so`z yurita turib, shunday degan edi: «Roman tarixiy faktlarni yozishdan voz kechadi va ularni asar mazmunini tashkil qilgan xususiy voqealardan bog`lanishda qabul qiladi, bu orqali u tarixiy faktlarning astarini olib beradi... Axir, voqelikning o`zida tarixiy voqealar xususiy odamning taqdiri bilan chatishib ketmaydimi, aksincha. Xususiy odam ba`zi vaqtda tarixiy voqealarda qatnashmaydimi?»<sup>14</sup>

Yozuvchi tarixiy faktlarga ko`r-ko`rona ergashmaydi, balki buyuk tanqidchi aytganidek, xayol kuchi bilan yaratilgan «xususiy odamlar»ning qalb dialektikasi, ruhiy olamini mohirlilik bilan badiiy liboslarga o`raydi. Biz bu

---

<sup>13</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-yil, 268-bet

<sup>14</sup> Belinskiy V. Adabiy orzular. Toshkent, 1986-yil, 68-bet

o`rinda alohida mehr va muhabbat bilan yaratilgan Qalandar Qarnoqiy, Xurshidabonu, usta Temur Samarqandiy obrazlarini nazarda tutayotirmiz.

«Ulug`bek xazinasi» romani ijtimoiy-estetik qimmati, qahramonlarining yorqin insoniy qiyofasi, tarixiyligi va zamonaviyligi adabiyotshunosligimizda ko`p talqinlarda o`rganildi. Jumladan, keyingi yillarda adabiyotshunoslikda yangicha badiiy tafakkur va epik tasvirning o`ziga xosligiga yangicha talqiniy yondashuvlar kuzatilmoqda. Adabiyotshunos olim Ulug`bek Hamdamning “Badiiy tafakkur tadriji”<sup>15</sup> monografiyasida badiiyat durdonalarini jahon adabiyotshunosligi hamda adabiy-estetik tamoyillariga yondashgan holda tadqiq etishga e`tibor qaratiladi.

“Ulug`bek xazinasi” romanidagi ruhiy holat tasvirining ifodasini tadqiq etgan Shoira Isayevaga ko`ra romandagi ruhiy holat tasvirini psixologik maktab nazariyotchisi Zegmund Freyd ta`limoti asosida tekshirish qanday natijaga olib kelishini “Ulug`bek xazinasi” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri” maqolasida tahlil qiladi.<sup>16</sup>.

«Ulug`bek xazinasi»dagi ruhiyat tasvirining bosh sababi ma`rifat bilan jaholat o`rtasidagi shafqatsiz, murosasiz kurashni aks ettirishdan iborat. Bu kurash ruhan bir-biriga zid xarakterlar, ular o`rtasidagi qonli, fojiali, iztiroblarga to`la to`qnashuvlar va ruhiy kechinmalarni o`z ichiga oladi. Asardagi «xazina» ana shu ziddiyatli tarixiy davrning mustabidligini, ziyolilar va lo`ttiboz, johil mansabdarlar o`rtasidagi ziddiyatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, ham ruhiy jihatdan murosasizligini ochib berish uchun badiiy vosita, voqealar dinamikasini ta`minlovchi ramziy detal vazifasini ado etgai.

Yozuvchi o`z qahramonlarining ruhiy olami, qalbida kechayotgan tuyg`ularni, ongida charx urgan fikr-o`ylar mantiqini aniq va chuqur his etmasa, xarakterlar ruhiyati tasvirida o`quvchini ishontira va yig`lata oladigan

<sup>15</sup> Ulug`bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent, 2006-yil

<sup>16</sup> Qarang: Shoira Isayeva .“Ulug`bek xazinasi” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri // O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 2/2001 yil, 65-bet

asar yarata olmaydi. Bu jihatdan Odil Yoqubov «Ulug`bek xazinasi» romanida o`z iste`dodining yuksakligini, jozibadorligini namoyish eta oladi.

Adib voqelikning faqat ko`zga ko`rinadigan tashqi tomonini emas, balki uning bag`rida faoliyat ko`rsatayotgan qahramonlarning kechinmalarini, ixtirob va shodliklarini to`laqonli aks ettirishga erishgan. Bu XV asr Samarqanddagи siyosiy, iqtisodiy, madaniy shart-sharoitlar butun murakkabligi, tarovati va fojiasi bilan ishonarli aks ettirishga imkon bergan.

Romanda ob`ektivlik bilan sub`ektivlikning uyg`unlashishi, ruhiyat tasvirining turli-tuman vositalar orqali chuqurlashishi va noziklashishi, eng muhimi, personajlar ruhiyatining ijtimoiy voqelik bilan shartlanganligining badiiy asoslanishi o`zbek realistik romanchiligining XX asrning 70—80-yillarida yangi bir pog`onaga ko`tarilganligidan dalolat beradi.

Adabiyotshunos Shoira Isayeva “Ulug`bek xazinasi” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri” maqolasida asarni ruhiy tahlil metodi, ya`ni Freyd ta`limoti asnosida tahlil etishga harakat qiladi. Olima bu o`rinda shunday yozadi: “ Ko`pgina tadqiqotchilar 3egmund Freydning nazariy qarashlariga, ularning mohiyatiga chuqur kirib bormay, unga ko`r-ko`rona ergashmoqdalar. Agar romanga Z. Freyd nazariyasi orqali yondashsak, Ulug`bek va Abdullatif fojiasi tarixiy-siyosiy vaziyat bilan emas, balki ularning ongsiz patalogik-biologik sabablari bilan izohlanishi lozim. Bu -to`g`ri emas. Chunonchi, Z. Freyd yozadi: «Ambivalentlik (ziddiyatlilik) faktidan kelib chiqib, bizning sezgilarimiz harakati va ziddiyatini anglash mumkin, ambivalentlikning o`zini esa ruhiy dunyoning asosiy va izohlab bo`lmas fenomeni sifatida hisoblash kerak bo`ladi». Agar sezgilardagi, ruhiyatdagi ambivalentlik ijtimoiy voqelik oqibati bo`lsa, bu fenomenning sabablarini har tomonlama izohlash mumkin. Agar u tabiiy biologik jihatdan xastalangan, noqis ruhiyat natijasi bo`lsa, uning na hayot, na badiiy ijod uchui zarracha qimmati bo`ladi.

Agar Zegmund Freyd nuqtai nazaridan Abdullatif xarakteriga yondashsak, uning yovuz qilmishi asosida otaga mehr bilan birga, nafrat ham borligi ma`lum bo`ladi. Mana shu tabiiy yovuzlik tuyg`usi uni o`z otasini qatl etish uchun hukm chiqarishgacha olib keladi”<sup>17</sup>.

Odil Yoqubov bunday bir tomonlatma talqinga yo`l qo`ymaslik uchun Abdullatifdagi yovuzlikni, bir tomondan, uning shaxsiyatidagi taxtga, mansabga o`chlik ishtiyоqi, ikkinchi tomondan, mana shu o`chlikka, ishtiyоqqa olib kelgan Gavharshodbeginning tarbiyasi bilan aloqadorlikda izohlaydi. Uchinchi tomondan, Ulug`bek va farzandi Abdullatif o`rtasida sovuqlik, adovat tushishiga olib kelgan bir qancha ijtimoiy-siyosiy sabablar borki, adib o`rni-o`rni bilan romanda ularga pjtimoiy, psixologik determinizm (asos) sifatida ishora qilib boradi. Masalan, 1448-yilda Ulug`bek Tarnob yaqinida o`g`illari bilan Alouddavla ustidan qozongan g`alabani Abdullatif nomidan emas, balki Abdulaziz nomidan e`lon qiladi. Bu esa ota-bola o`rtasidagi kelishmovchilikka olib keladi. Bundan tashqari, Ulug`bek Hirot qal`asida saqlanayotgan mol-mulkni Abdullatif ixtiyorida qoldirmaydi. 1449-yilda esa Abdullatif o`z ulusida savdo solig`i — «tamg`a»ni bekor qiladi. Ulug`bek bu soliqqa katta e`tibor bilan qarar edi. Mana shunday o`zboshimchalikdan g`azablangan Ulug`bek Samarqandda Abdulazizni qoldirib, Hirotga yurish boshlaydi. Biroq Abdulazizning idora usulidan Samarqandda boshlangan noroziliklar tufayli u orqaga qaytishga majbur bo`ladi. Shu fursatdan foydalangan Abdullatif Termiz orqali kelib, SHahrisabzni bosib oladi. Unga qarshi qo`shin tortgan Ulug`bek esa Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog`i yonidagi jangda amirlarning xiyonati sababli yengiladi. Samarqand amiri esa Ulug`bekka shahar darvozasini ochmaydi. Natijada Ulug`bek Abdullatifga taslim bo`ladi.

---

<sup>17</sup> Qarang: Shoira Isayeva „Ulug`bek xazinasi” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri // O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 2/2001 yil, 65-bet

Badiiy asarda ruhiyat tasviri asoslovchilik va izohlovchilik xarakteriga ega. Chunki inson o`z ongidagi ayrim narsalarni tanlab oladi, ularni faollashtiradi, qolgan narsalarni yo unutadi, yo keyingi planga suradi. Shu bois O. Yoqubov insondagi ongli va ongsiz holatlar chegarasiga alohida e`tibor qaratadi. Chunki u o`zi bilishi mumkin bo`limgan narsalarni bilishga intiladi va bilishga erishadi ham. Oqibatda, u cheksiz ruhiy holatlar, kechinmalar va, shubhasiz, kurashlar girdobiga tushib qoladi.

Abdullatif xarakteri va ruhiyatiga xos yetakchi xususiyat undagi ong, ruhiyat, ehtiyojning muayyan chegara bilmasligida. Badiiy psixologizm bu — ijodkor idealidagi psixologizm. Qolaversa, O. Yoqubov - idealidagi badiiy pspxologizm — aniq tarixiy davr, tarixiy shaxslar psixologizmi bo`lib, u ijtimoiy, ruhiy jihatlarga har tomonlama asoslangan.

O`zbek romanchiligida ruhiyat tasvirinipg asosiy yo`nalishi haqida fikr yuritar ekanmiz, «Ulug`bek xazinasi» bu borada alohida voqealvoq bo`lganligini e`tirof etmay ilojimiz yo`q. Ayniqsa, xarakterlar ruhiyati tasvirida, voqealvoq hamda vaziyatlar tasvirida O. Yoqubov jiddiy tanlash, saralash tamoyiliga qat`iy amal qiladi. SHu bois romandagi voqealar oqimi ravon, izchil mantiqiy uzviylikka ega. Asardagi har bir qism yoki bob ruhiyat tasviri, romandagi umumiy muammo yechimi jihatidan yangi bir pog`ona vazifasini o`taydi.<sup>18</sup>

Matab darsliklarida, jumladan, 9-sinf uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligida Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” romanini o`qib o`rganish tavsiya etilgan hamda nazariy ma`lumot sifatida “Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili” haqida fikr yuritilgan. Darslikda ruhiyat tasviri haqida : “ Asarda (“Ulug`bek xazinasi” romanida) o`g`lia qarshi kurashishi lozim otaning ham, ota halokatiga sabab bo`lgan bolaning ham ruhiyati juda ta`sirli va ishonarli ko`rsatilgan. Yozuvchi o`tmishda nima bo`lganini aytibgina qo`ymaydi, balki o`tmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr ko`rganlar qanday

---

<sup>18</sup> Shoira Isayeva .“Ulug`bek xazinasi” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri // O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 2/2001 yil, 66-67-betlar

sezimlarni kechirganliklarini ,qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli ko`rsatib beradi”<sup>19</sup>.

Odil Yoqubov o`zining romanlarida tarixiy obrazlarni ishonarli, hayotiy tasvirlashga harakat qilgan. “Ulug`bek xazinasi” romanini yozish jarayonida yozuvchi ko`plab tarixiy, ilmiy asarlarni sinchiklab o`qib-o`rganadi. Davr tili, ijtimoiy hodisalarni asardagi aks etishida yozuvchining til, tarix, falsafa va boshqa fanlarni chuqur o`zlashtirganligidan guvohlik beradi.

Bugungi kunda ulug` ajdodlarimiz bosib o`tgan yo`ldan ibrat olish,ular amalga oshirgan ishlarni o`rganish, merosini targ`ib qilish ma`naviy yuksalishimiz belgisi hisoblanadi.

---

<sup>19</sup> Q.Yo’ldoshev, V.Qodirov, J.Yo’ldoshbekov. Adabiyot (9-sinf uchun darslik-majmua)-Toshkent, 2006.282-bet.

## I BOB

### ASARDA TARIXIY SIYMONING BADIY OBRAZGA AYLANISHI VA ADABIY QAHRAMON MUAMMOSI

#### 2.1. Yozuvchining g`oyaviy-estetik munosabati va Ali Qushchi obrazi orqali ustozga hurmat va sadoqatning ifodalanishi.

Romanning dastlabki bobida Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi obrazi bilan bog`liq tavsilotlar qalamga olinadi. Ali Qushchi Ulug`bek davrining shunday bir zukko olimidirki, u hamma narsani – butun hayot oqimi va bu oqimning eng mayda shaxobchalarini,o`z davri voqeligining butun ziddiyatlarini,qayg`uli va kuchli tomonlarini,uning Ulug`bekka daxldor jihatlarini , davr qahramonliklari va razilligini, o`sha davr tarixiga aloqador soxtalik va haqiqatni biladi,-deb ta`kidlaydi adabiyotshunos Adolat Zaynidinova.<sup>20</sup>

Darhaqiqat yozuvchi Ali Qushchi iztiroblari asnosida Ulug`bek siymosini yaratar ekan tarixiy voqelikning mayda va ahamiyatsiz bo`lib ko`ringan barcha jihatlarini tahlilga tortib,ulardan saltanat inqiroziga sabab bo`lgan katta bir haqiqatni – taxt va saltanat ishqida yongan temuriyzodalarning qilich va tig` charxlashidan qo`llari bo`shamaganligini, shahzoda Abdullatif ham padari buzrukvoriga qarshi shamshir ko`tarib chiqqanini qabariq tasvirda ifoda etadi. Ali Qushchi Mirzo Ulug`bek boshiga tushayotgan ko`rgiliklarni oldindan sezadi:

“ Ali Qushchi kaltagina cho`qqi soqolini tutamlab,bir zum tuynukka tikilib qoldi.

O`tgan kuni tong payti ustod Mirzo Ulug`bek rasadxonasiga buyurgan edi. Yo`lbars terisi yopilgan o`z kursisida o`tirib, timqora osmonga razm solib uzoq xayol surdi.

---

<sup>20</sup> Zaynidinova A. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, 1999-yil, 15-bet

Ali Qushchi bilar, bu yil sohibqiron Amir Temur tug`ilgan yildagiday falak qozisi mushtariy bilan Zuhro yulduzları bir-biriga yaqin kelishi kutilar edi. Ko`ngli notinch davlatpanoh esa bunga allaqanday umid bog`lar, nimanidir kutar edi.<sup>21”</sup>

Shunisi xarakterliki, Ulug`bek o`ziga uyuşdırılmışlığı foyeani, fitnani sezgan, bir vaqt avval qoragurug`larning mudhish niyatidan, mamlakat osmonini qora bult qoplayotganidan voqif bo`ladi. Biroq uni hokimiyat taqdiridan ko`ra, ko`proq uzoq yillar davomida yig`ilgan ilm-fan xazinasining taqdiri qiyaydi. “Yo`q! Men sultanatdan ayrılishdan qo`qmeymen. Faqat bu elga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan boyligim – madrasayu rasadxonam, nodir xazinam – to`plagan kutubxonam va, nihoyat, yaratgan asarlarim – barchasi poymol bo`lishidan qo`rqamen. Ha, faqat shundan qo`rqadurmen”<sup>22</sup>, - deydi Ulug`bek.

Ana shu mulohazalarga ko`ra , Ulug`bek o`zining sodiq shogirdi, taniqli astronom olim Ali Qushchini o`z huzuriga chorlab, unga ilm-fan xazinasini johil guruhlardan, mahdud mutaassiblardan asrab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish choralarini ko`rish vazifasini tpshiradi. Ulug`bek Ali Qushchiga : “Qirq yil sultanat tebratib, orttirgan butkul boyligim, rasadxona va kutubxonam, bitilgan va hali nihoyasiga yetmagan risolayu kitoblarim – barchasi sening qo`lingdadir. Alqissa, bu xazinani johil gumrohlardan, mahdud mutaassiblardan asrb qolmoq... yolg`iz sening ixtiyoriningdadir... Ammo esingda bo`lsin: ko`p xatarli yumush bu!<sup>23”</sup>-deydi.

Romanda Ali Qushchi boshliq sofdiril ilm ahlining Ulug`bek topshirig`ini bajarish – ilm xazinasini saqlab qolish va undan kelgusi avlodlarni bahramand qilish borasidagi jonbozliklari g`oyat ta`sirli qilib qalamga olingan. Asarda Ali Qushchi tolibi ilm Miram Chalabiya qarab: “Shu bu kungacha ne ish qilgan

<sup>21</sup> Odil Yoqubov . Ulug`bek xazinasi. Toshkent. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 4-bet.

<sup>22</sup> O'sha asar, 190-bet

<sup>23</sup> O'sha asar, 78-bet

bo`lsak, shu yumushni qilamiz,bolam! Ustod , jannatmakon Mirzo Ulug`bek hazratlari yoqqan ilm shamini zchirmoq gunohi azim bo`lur... Zero , ilm ahlining g`animlari bo`lmish mustabid shohlar kelib keta berar, ammo bu maskan,bu zahmatkash xalq abadul-abad hayotdir. SHu yurt hurmati,kelgusi avlodlar hurmati,ustod boshlagan ulug` ishni oxiriga yetkazmoq darkor,azizim”<sup>24</sup>, -deydi.

Romanni tahlil qilgan adabiyotshunos olim S.Mirzayev Ali Qushchining bu gaplari haqida: “ Ulug`bek xazinasi” asarining mahzi sifatida aks sado beradi. Romanda o`sha zamon haqiqati bor murakkabligi va ziddiyatlari bilan haqqoniy aks etgan”<sup>25</sup>, -deb ta`kidlaydi.

Romandagi badiiylik va badiiy to`qimaning asar syujetida tutgan o`rni tadqiqini A.Zayniddinova shunday izohlaydi: “Ali Qushchi qalbini bezovta qilgan hissiyotlar bo`roni garchi tarixiy haqiqat bo`lsa ham, uning ichki kechinmalari,shuningdek, hayotiy fakt va hodisalarini olimona tahlil qilib,o`z ustodi holatini aniqlashi tasvirida yozuvchi qalbini o`rtagan o`y-xayollar,hissiyotlarning izlari ham mavjudligini tan olishimiz lozim. SHunisi haqiqatki, har bir obraz yozuvchi qalamga olgan davr mahsulimi yoki aniq tarixiy shaxs siy wholeining badiiy timsoli bo`lsa ham u yozuvchining idroki,qalbi va ongi orqali o`tib, roman sahifalaridan joy oladi. Ali Qushchi Ulug`bekning sadoqatli shogirdi ekanligi ma`lum, biroq uning romandagi faoliyati, shijoati va sadoqatini ifodalovchi manzaralar yozuvchi bidiyy to`qimasining mahsulidir”<sup>26</sup>.

Romanda qirq yil Movarounnahrda ma`rifatli shoh bo`lgan, muruvvatli fuqaroparvar podsho sifatida shuhrat qozonib, butun iqtidori va salohiyatini o`z davlati, o`z eli osoyishtaligiga sarf qilgan Ulug`bek siy wholeining sahifalar osha qad ko`taradi. Biroq, uning o`z davrining donishmand farzandi sifatidagi

<sup>24</sup> O`sha asar, 332-bet

<sup>25</sup> S.Mirzayev, S.Shermuhamedov. Hozirgi o`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, “O’zbekiston”, 1993 yil, 381-bet.

<sup>26</sup> Qarang: A.Zayniddinova Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, 1999-yil, 16-bet.

salohiyati Ali Qushchi faoliyati va xotiralari fonida yanada go`zalroq, yanada jozibaliroq ochilgan.

Ulug`bek Ali Qushchiga Jahongir Temurning oltinlaridan berib, mabodo fojia yuz berguday bo`lsa ilm xazinasini qutqazib qolishni buyuradi. Kitobxonlar uning nigohi bilan yerdan shiftgacha terilgan uch qator qora charm jildlik og`ir, qalin kitoblar bilan tanishadi, ularning olis Qohiradan keltirilganini, Sohibqiron Amir Temur Kuragoniy sulton Boyazid Yildirimga qarshi yurish qilganida o`sha tomonlardan olib kelganini, lekin ular hanuzgacha yaxshi mutolaa etilib, sharh qilinmaganini bilib olamiz.

Romanda Ali Qushchi shu qutlug` dargohni deb, shu ilm durdonalarini deb dunyo lazzatlarini tark etib, hatto nogiron onasini yum-yum yig`latib, uylanmoq va farzand ko`rmoq baxtidan mahrum bo`lib umr o`tkargan tarixiy shaxs qiyofasida tasvirlangan. Uning boshiga har qanday fojialar tushganda ham ilm xazinasini bid`at va xurofon xurujlaridan saqlab qola olgani ochib berilgan. Bu adabiy tip Ulug`bek davri haqiqatining badiiy ko`zgusiga aylangan. Shu ko`zguda padarkush Abdulatif o`zining kechirilmas gunohlarga botgan taqdirini ochiq – oydin ko`radi.

Romanda davr haqiqatini bor ziddiyati bilan ko`rsata oladigan eng ulkan, eng tiniq ko`zgu Ulug`bek siymosidir. Bu zot shu qadar ziyrakki, o`zi shoh sifatida bosib o`tgan yo`lni xayolan chuqur tahlil qilib, qanday xatolar saltanatni xavf ostiga qoldirganini bexato topa oladi. U saltanat boshiga tushgan xavf- xatarning bosh sababchisi voldai mehriboni Gavharshodbegim ekanligini, uning saroyni johil – gumrohlarga to`ldirib yuborib, begunoh qatl va qirg`inlarni avj oldirib, shahzodalar orasiga nizo urug`ini sochib, farzandning otaga qarshi tig` ko`tartirganini yurak to`la dard bilan idrok etadi. Ulug`bekning bu boradagi o`y iztiroblarida o`sha davrning dardchil hasratlari toj-taxt uchun kurash fojialari, ya`ni davr haqiqati ko`zgusida tasvirdek tiniq ifodalananadi. Ulug`bek mana shu xatodan johil ulamolaru, g`arazgo`y sarkardalar ustalik bilan foydalanib, xoinlik yo`liga o`tgan nodon Abdulatifni

padarkushlik sari boshlayotganliklarini ham yaxshi biladi: biladigina emas, balki o`z taqdirining fojiali yakunini bashorat ko`zgusida ko`ra oladi: “Xuroson yurishidan ko`p boylik, yuksak rutba va shon-shavkat kutgan sarkardalarning hamma umidlari puchga chiqdi. Ne chora, bu og`ir yurish zafar keltirmadi. Keyinchalik, Mirzo Ulug`bek o`z o`g`li Abdulatifga qarshi qo`shtin tortib, Jayhun bo`ylariga otlanganida esa, Samarqandda qolgan shahzoda Abdulaziz ko`p nomaqbul ishlar qilib, bir qancha nufuzli amirlarni unga qarshi qo`yadi, urushdan charchagan fuqaro ham undan soviydi. Oqibat, mana qirq yillik mehnati xavf ostida turibdi...

U shogirdi Ali Qushchining ming chandon haq ekanini dilidan his etar, ayni zamonda uning boyagi gaplari qayta-qayta esiga tushib, yuragini o`rtar edi”<sup>27</sup>.

Bu azobli o`ylarda faqat Ulug`bekning o`zigagina ayon bo`lgan jamiyatni boshqarish, toju taxtdan ilmu funun yo`lida, el-yurt farovonligi yo`lida qattiqqo`llik bilan foydalanish, kelgusi avlodlar uchun umrboqiy ma`rifat xazinasini meros qilib qoldirish to`g`risidagi haqiqat o`z badiiy ifodasini topgan Ulug`bekning buyukligi shundaki, u o`ziga zamondosh bo`lganlardan beqiyos darajada yuqori turgan va hayratda qoldiradigan darajada koinot sirlarini ochgan. O`z davridagi shohlik an`analari va davlatni boshqarish qonuniyatları bilan mahkam bog`liq bo`lgan bu mutafakkir ularning barchasiga qarshi borib, o`z ilohiy aqliga to`g`ri keladigan qonunlarni joriy qiladi, ilmiy kashfiyotlarga ma`rifatga keng yo`l ochadi, ilm xazinasini boshqa xazinalardan ustun qo`yadi, insonni o`ziga nazar solmoq va o`zligini tanitmoqqa o`rgatadi. Shunday qilib, Ulug`bekning o`zi ta`kidlaganday, boshqa shoh va boshqa fotihlardan Ulug`bekni kelgusi avlodlarning ajratib ola bilishiga yo`l ochiladi. Biroq, Ulug`bekdagi bu alohidalikni uning o`z davri qabul qilmaydi va boshqa fojialardan chiqmaydi. Bu davr haqiqati edi.

---

<sup>27</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 231-bet.

Yozuvchi Ali Qushchini o`z davri olimlarining adabiy tipi yuksakligida yaratishga intilib, uning turmush tarzi va ilmiy faoliyati tasvirida, Ulug`bek davri ilmiy muhitining, ijtimoiy shart-sharoitlarining qirq yil davomida ustod bilan birgalikda ishslashning nurli izlari qolganini uning xotiralarini qayta jonlantirish jarayonida mohirlik bilan ochib beradi. Bu vosita shogird xotirasida ustodlar buyukligi, ularning ilm-fan ravnaqi yo`lidagi rahnamoliklari hamda ilmlar xazinasining egasi bo`lib yetishgan shogirdlar sadoqatining haqqoniy mezonidir. Ali Qushchi xotirasi ustozlar adabiy tipini yaratuvchi kuchli vositaga aylanadi. “Esida bor, iliq bahor kuni Mavlono Qozizoda Rumiyni Mirzo Ulug`bek o`zi boshlab kelgan edi. U mahal a`lohzratlari ayni kuchga to`lgan, yosh, iqtidorli yigit edi. O`zi ham egnidagi zarrin libosi, boshidagi simobiyl dastori, butun shiddatli qiyofasi bilan yonidagi barcha a`yonlardan ajralib turardi. SHu boisdanmi, a`lohzratlarining yonida ustod Qozizoda Rumiy yana ham nimjonroq va ojizroq ko`rinardi. Lekin, bu nimjongina oppoq cholning vujudidan allaqanday ichki bir zyo, kishini o`ziga rom qiluvchi bo`lakcha mehr yog`ilib turardi”<sup>28</sup>. Bularning barchasi xotira shaklidagi badiiy to`qimalardir. Unda davrning ilmiy hayoti qayta jonlanadi:

“Mavlono bilan Mirzo Ulug`bek chinor soyasidagi baland kursilardan joy olishdi. So`ngra ustod Qozizoda Rumiy onhazratning iltimosi bilan zarbof matoga o`ralgan qalin kitobini ochib, riyoziyot ilmi hamda bu ilmning falakkiyoti o`rganishdagi o`rni to`g`risida bahs yuritdi. Ali Qushchi ustodning riyoziyot ilmiga bag`ishlangan bu purhikmat kitobini madrasada ko`p mutolaa qilgan edi. Lekin mutolaadan olgan zavqi bir bo`ldiyu, Mavlononing og`zidan eshitgani bir bo`ldi. Ustod murakkab riyoziyot masalalarini shunday muloyim ovozda shunday tiniq bir mantiq bilan yechib berdiki, Ali Qushchi go`yo risola emas, ajib musiqa tinglayotgandek erib ketdi... Faqat Qushchi emas, Mirzo Ulug`bek bilan birga kelgan barcha ayonlar va barcha ilm ahli va hattoki, ilm-

---

<sup>28</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 31-bet.

fandan uzoq arkoni davlatlar ham boshlarini egib, chuqur sukutga cho`mib eshitdilar.

Nihoyat, ustod kitobini yopib, a`lohzratlariga qaradi. A`lohzratlari mavlonoga tashakkur bildirib, hamon sukut saqlab o`tirgan a`yonlar va barcha tolibi ilmlarga yuzlandi... ustodning kalomi ayon bo`lgan – bo`lmaganligini so`radi. Mirzo Ulug`bekning so`rog`iga biron kimsa javob bermadi. Mavlono Qozizoda Rumiy xafaqon bosh chayqadi, Mirzo Ulug`bek esa miyig`ida kulimsirab qo`ydi. Shunda Ali Qushchi iymanibgina o`rnidan turdi va qisinib- qimtinib unga hamma narsa ayon ekanini izhor qildi.

Mavlono Qozizoda Rumiyning ko`zlar charaqlab ketdi. Mirzo Ulug`bek esa ilmi riyoziyot va handasa borasida ustma –ustiga savollar berdi. Ali Qushchi avval tortinib, keyin esa xiyol dadillanib, hamma so`roqlarga javob berdi. SHundan keyin Mirzo Ulug`bek uni yoniga chaqirib, avlod - ajdodini, qaysi madrasada, kimlardan ta`lim olganini surishtirdi, ustod Qozizoda Rumiy esa, mayin soqoli bilan uning yuzini silab, peshonasidan o`pdi<sup>29</sup>. Mana, sizga xotirada jonlangan adabiy tiplar, Ali Qushchining ilm dunyosiga kirishi tarixi.

Romanda Ali Qushchi shu qutlug` dargohni deb, shu ilm durdonalarini deb dunyo lazzatlarini tark etib, hatto nogiron onasini yum-yum yig`latib, uylanmoq va farzand ko`rmoq baxtidan mahrum bo`lib umr o`tkargan tarixiy shaxs qiyofasida tasvirlangan. Uning boshiga har qanday fojialar tushganda ham ilm xazinasini bid`at va xurofon xurujlaridan saqlab qola olgani ochib berilgan. Bu adabiy tip Ulug`bek davri haqiqatining badiiy ko`zgusiga aylangan. SHu ko`zguda padarkush Abdulatif o`zining kechirilmas gunohlarga botgan taqdirini ochiq – oydin ko`radi.

Ko`rinadiki, har bir adabiy tip o`z davrining badiiy haqiqati sifatida tarixiy roman sahifalarida yashab qoladi. Biroq, o`z zamonasidan o`zib ketib, istiqbolni oldindan ko`ra oladigan Ulug`bek, Ali Qushchi singari adabiy tiplar

---

<sup>29</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 31-bet.

yaratilgani mazkur asarga abadiylik muhrining bosilganidan nishonadur. Chunki mahoratlari yozuvchi adabiy tiplar yaratayotganida uni qalbidagi muhabbat va nafrat olovini olamga sochish uchun bir vosita deb biladi hamda o`zi yaratgan har bir adabiy tipga u yashagan davrning tarixiy haqiqatini mujassamlashtirish bilan birga yana kelajakka daxldor bo`lgan haqiqat mohiyatini ham singdirib yuborishning uddasidan chiqadi.

“Ulug`bek xazinasi” romanida tasvirlangan hukmdorlar obrazining badiiy tabiatiga doir mulohazalarimizni professor M.Qo`shjonovning quyidagi fikrlari bilan yakunlashni lozim topdik: “Odil Yoqubov Ulug`bek fojiasini, Ali Qushchi shijoatini, Abdulatif xoinligini, mavlono Muhiddin sotqinligini psixologik asosda ko`rsatadigan voqealarni makon jihatidan ham, zamon jihatidan ham fokusga, xarakter va voqealarni kattalashtirib, bo`rttirib ko`rsatadigan ko`zguga solgandek, bir yerga jamg`ara oladi. Kitobxon tasvirlanayotgan zamon ruhini, ma`lum bir davrdagi tarixiy fojiani, poklik va nopolik, samimiylig bilan nosamimiylig, taraqqiyot bilan jaholat orasidagi adabiy ziddiyatni voqealar tasvirida anglab oladi”.<sup>30</sup>

## **2.2. Padarkush Abdulatif va uning ayanchli qismati.**

Abdullahifning padarkushligi ko`pgina tarixiy manbalarda, xususan, «Majolis-un-nafois», «Boburnoma» kabi asarlarda, Shayx Ozariy ma`lumotlarida afsus bilan qayd etilgan. Tarix padarkush olti oydan ortiq umr kechirmasligini ta`kidlaydi. Buni biz Xisravni o`ldirgan Sheruya, abbosiy xalifalardan Muntasir ibn Mutavakkil ibn Mu`tasim qismatidan ham bilishimiz mumkin. Afsuski inson xatokor. U o`tmishidan kamdan-kam saboq chiqaradi. Yozuvchining Abdullahif holatlariga chizgi berishda Ganjaviyning kitobiga, unda bitilgan padarkush qismati haqidagi ma`lumotga e`tibor tortishi ham insonning xatokor ekanligini yodga tushirishdir. Holbuki, yoshligidan ko`p

---

<sup>30</sup> Qo`shjonov M. Saylanma. Toshkent, Adabiyot va san`at nashriyoti. 1982. 1-tom. 301-bet.

kitob mutolaa qilgan, Nizomiy asarlarini sevib o`qigan, o`zi ham nozikta`b shoir bo`lgan Abdullatif padarkush qismatini bilmasligi mumkin emas edi.

XX asrning 70-yillari o`zbek adabiyoti masalalariga qo`l urgan tadqiqotchi, albatta, Odil Yoqubov ijodiga murojaat qiladi. Chunki adabiy oqimni boshqa bir o`zanga solib yuborgan, adabiy qahramonni ijtimoiy voqelik mahsuli emas, insoniy tuyg`ulardan ayri bo`lmagan tabiatning yaratig`i sifatida o`rganib, uning ichki qatlamlarigacha kirib bora olgan adib Odil Yoqubovdir. Uning tarixiy asarlarga badiiy ruh singdira olishdek psixologik tahlil mahorati ko`plab talqinlarga ham asos berdi.<sup>31</sup>

Inson tabiatning bir qismi sifatida e`tirof etilsa ham, u ijtimoiy munosabatlar doirasida shaxsga aylanadi. Alovida shaxslargina millatni, uning asosi bo`lgan o`zlikni saqlab qola oladi. Odil Yoqubovning «Ulug`bek xazinasi» romani tuganmas fojialar qobig`ida tasvirlansa-da, alovida shaxslarning tarix silsilasiga ta`siri nuqtai nazaridan qimmatlidir. Romanda ijtimoiy holatlarning psixologik tahlili uning ijtimoiy psixologik roman sifatida baholanishiga asos beradi. Keng ijtimoiy hayot va xarakterlarning chuqur ruhiy tahlili uni maishiy-psixologik romanlardan keskin farqlaydi.

Romanda yozuvchi ota-o`g`il munosabatlaridagi muhim jihatga etibor qaratadi. Ya`ni Mirzo Ulug`bek va Abdullatif munosabatlaridagi konflikt birdan paydo bo`lgan emas, ularni o`zaro g`anim qilgan din peshvolari ham emas. Gavharshodbegim - Ulug`bek, Abdullatif - Ulug`bek munosabatlarining keskinlashib portlash darajasiga yetkazgan holat oilaviy munosabatlarning to`g`ri o`rnatilmaganida edi. Albatta, tarixiy romanni yaratish uchun muallif ko`plab manbalarni o`rgangan va ana shularga tayanib qat`iy va asosli xulosa chiqara olgan. Abdullatif va Ulug`bek munosabatlarining tarixiy ildizlari

---

<sup>31</sup> Bu haqda qarang: Samandarov I. O`zbek tarixiy romanlarida tarixiylik. . T.: 1992; To`rayev D. Hozirgi o`zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi ( 60 - 80-yillar). T.: 1994; Karimov H. Hozirgi o`zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiysi (70-80 yillard). T.: 1994

ko`plab farazlarni yuzaga keltirdi. «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasining 2008-yil, 12-dekabr sonida Amriddin Berdimurodovning Ulug`bek fojiasining asl ildizlari xususidagi «*Bilmadim, ne edi gunohim?*» sarlavhali maqolasi e`lon qilingan bo`lib, unda muallif quyidagilarni yozgan edi: «Mirzo Ulug`bek astronomiya fani bilan shug`ullanib, ilmu ma`rifatga homiylik qilgani tufayli islom dini ruhoniylari fitnasi qurbanib bo`lgan emas. U xalqparvar hukmdor sifatida oddiy xalqning ahvolini yaxshilash maqsadida dadil iqtisodiy islohotlar o`tkazib, katta mulkdorlarning manfaatlariga qarshi borganligi sababli ular uyushtirgan fitnaning qurbaniga aylangan»<sup>32</sup>. Bunga o`xshash fikr «Temur va Ulug`bek davri tarixi» kitobida keltiriladi. Unda yozilishicha, Ulug`bek fojiasiga yer soliqlarini kamaytirgani, pul islohotini o`tkazgani, xazinaga tushuvchi daromad asosan feodallar hisobidan bo`lgani, shuningdek, qishloq aholisi hayotini yengillashtirish uchun soliqlarni kamaytirgani holda aholining savdo-hunarmandchilik bilan shug`ullanuvchi qismi uchun og`ir bo`lgan tamg`a solig`ini bekor qilmagani sabab qilib ko`rsatiladi.<sup>33</sup> Bundan tashqari mazkur asarda: «Ulug`bek va yuqori tabaqa doiralari, o`sha davr yozma manbalari xabar berishicha, axloq-odob qoidalarini nazarga olmay, bu bilan dinni o`ziga qarshi qilib qo`ygan. Saroyning so`fiylik tariqatlari arboblari bilan o`zaro munosabatlari juda murakkab bo`lgan... Juda ko`p mablag`lar talab etgan saroydagi zeb-ziynat, to`kin ziyofatlar, ko`pchilikka tushunarsiz ilmiy mashg`ulotlar, ko`pgina siyosiy xatolar qandaydir darajada Ulug`bek hukmronligini yemirdi» - deb yoziladi.<sup>34</sup> Ammo fransiyalik mashhur temurshunos olim Lyusen Keren esa fojianing boshqa sababi xususida to`xtaladi. «Ulug`bekning to`ng`ich o`g`li bilan kelisha

---

<sup>32</sup> Berdimurodov A. “Bilmadim,ne edi gunohim?” // “O’zbekston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2008 -yil, 12 -dekabr

<sup>33</sup> Temur va Ulug`bek davri tarixi. (So’zboshi muallifi: O’zR FA akademigi A. Asqarov).-T.: Qomuslar Bosh tahririyyati, 1996, 64-6et.

<sup>34</sup> Temur va Ulutbek davri tarixi, 110-112-6et.

olmaganligining boisi nimada edi?» - deya savol qo`yar ekan muallif o`z fikrlarini Ali Yazdiyning «Zafarnoma» va Abdurazzoq Samarqandiyning 1471- yilda yozgan «Matlai sa`dayn va majmai bahrayn» yilnomasi bilan asoslaydi. Har ikki asarda ham bu voqeaning sababi astrologiya bilan bog`liqligi ta`kidlanadi. Rasmiy astrologlar tomonidan o`rganilgan va uning o`zi ham tekshirib chiqqan Ulug`bekning taqdiri to`g`risidagi bashorat (goroskop)da ko`rsatilishicha, uning tug`ilgan kuni Ajdarning dum qismida joylashgan Sher burjida bo`lib, bu halokatdan nishona bo`lgan. Abdurazzoq Samarqandiyda esa bu fikr to`ldiriladi, ya`ni Ulug`bek va o`g`li o`rtasidagi adovat ularning taqdiridan kelib chiqadi. Ulug`bekning taqdir yulduzi Ajdar dum qismida bo`lib, baxtsizlik va musibatni ifodalasa, Abdullatifniki Ajdarning bosh qismida bo`lib, kuch va g`alabadan darak berishi ta`kidlanadi. «Ulug`bek uchun Yulduzlar jadvalining to`rtinchi bobini tashkil qilgan astrologiya alohida bir fan hisoblanardi. U o`zi qayta hisoblab chiqqan bu bashorat jadvali (goroskop)ga ishonar edi. O`g`lining o`ziga qarshi isyon ko`tarishi mumkinligi bois uni o`zidan uzoqda saqladilar va bu Abdullatifning valiahdlik huquqidан mahrum bo`lishiga olib keldi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, baxtiqaro Ulug`bek o`g`lining nafratini qo`zg`ab, o`z taqdirining shunday yakun topishiga ehtimol o`zi sababchi bo`lgandir»,<sup>35</sup> - deb yozadi muallif fikrini yakunlab. Taqdirning bunday aylanishi mashhur shoh Edip qismatini yodimizga soladi. Bundan insoniyat ming harakat qilmasin, ilohiy qonundan chetda bo`lolmasligi anglashiladi.

Faxruddin Ali Safiyuning «Rashahotu aynil-hayot» («Obihayot tomchilari») asarida Mirzo Ulug`bek va Nizomuddin Xomush bilan bog`liq lavhaga e`tibor tortiladi. «Maxfiy qolmasunkim, ul buzrugkim akobiri Samarqanddin Hazrati Mavlononing amrlarida o`zin saqladi - Xoja Isomuddin shayxul-islom

---

<sup>35</sup> Keren Lyusen. Ulug`bekning astronomiya maktabi // “O’zbekiston adabiyoti va san’ati”. 2009- yil, 10 -iyul.

Samarqandiy erdi. Va ul tuhmat va ihonatkim, xizmati Mavlonog`a yetushdi farzandlarining vositasi bila erdikim, du`o va azoyimxonliq va tasxiri jinng`a mansub erdi va ul jihatdin ahli haramning muazzamotlarig`a borish-kelish qilur erdi. Va arbobi g`arazdin jam`e ahli haramning ba`zisining muhabbatig`a nisbat ettilar va tuhmat qo`ydilar. Va ulholdin shammaye Mirzo Ulug`bekning sam`ig`a yeturdilar. Va xizmati Mavlononing farzandlari qochdi. Va ul sa`obat va tuhmatning asarining shomati xizmati Mavlono Nizomudding`a siroyat etti va Mirzo Ulug`bekka g`ayrat bo`lub har tariqa tamomroq g`azab bila Mavlononi talab etti. Qosidlar olorni bosh yalang otning aqibig`a mindurub, Mirzo Ulug`bekning yonig`a olib bordilar. Olor bog`da bir maydon joyda o`lturib boshlarini oshoq solib, muroqabada erdilarkim. Mirzo Ulug`bek olorning oldidin o`tdi. Olor turmadilar va Mirzo olorni talab etib va itobimiz so`zlarni og`oz qilg`ondin so`ng xizmati Mavlono Nizomuddin oydilarkim, «bu so`zlarning hammasining javobi bir kalima so`zdurkim, oyturman va man musulmonman. Agar bovar qilsang ko`b yaxshi va agar bovar qilmasang, har nimarsakim, xotiring xohlasa, buyurg`il...» Mirzo ul so`zdin mutaassir bo`ldi. Darhol turdi va oydikim, «oni qo`yunglar!..» Hazrati Eshon oytur erdilarkim, bu beodoblikdin so`ng Mirzo Ulug`bekka shikast va ko`b tashvishlar yetushdi va ul yaqinda oning o`g`li Abdullatif Mirzo oni o`lturdi». <sup>36</sup>

Odatda, farzandning yaxshi-yomon xislatlarini, eng avvalo, ota-onan payqaydi, demakki, uning birinchi tanqidchisi ham ota-onan bo`ladi. Farzand tarbiyasida onaning o`rnini muhim. Mirzo Ulug`bek Saroymulkxonimning tarbiyasini olgan. O`z onasi Gavharshodbegimdan esa yiroq bo`lgan. Bu narsa ona va farzand orasidagi mehrsizlikni yuzaga keltirgan. Romanning bir o`rnida Ulug`bek xotiralari misolida Gavharshodbegim qiyofasi gavdalanadi. Ammo bu xotira uning ko`nglida onasiga nisbatan iliq bir tuyg`u uyg`otmaydi.

---

<sup>36</sup> Safiy Faxruddin Ali. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). (Tarjimon: Domla Xudoybergan ibn Bekmuhammad (XIX asr). Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriiddin Umrzoq). T.: Abu Ali ibn Sino, 2004, 150-151-betlar.

Aksincha, ko`z oldiga qo`lidan tasbeh tushmaydigan kalondimog` ayol keladi. Yozuvchi uni «farishtasi yo`q, chehrasi sovuq ayol edi» deya tasvirlaydi. Yozuvchining Gavharshodbegimga bo`lgan salbiy munosabati Ulug`bek nazaridan ham o`tkaziladi: «Xuroson taxtiga Shohruh Mirzo o`tiribdi hamki, Gavharshodbegim toju taxtni o`z qo`liga oldi. Saroyni johil gumrohlar, Hoqoni Saidni ko`rolmaydigan badxohlarga to`ldirib yubordi. Hirot fisqu-fujur uyasiga aylandi. Shohruh Mirzoni chalg itib, sayidlarni qatl qildirgan, shahzodlar orasiga nizo tushirgan, suykli nabirasi Alauddavla bilan Abdullatifni birbiriga qayrab solib qatlu qirg`in chiqargan ham, e voh, shu validai mehriboni Gavharshod begin bo`ldi!..»<sup>37</sup>

Tarixda voqeа-hodisalar bir marta yuz beradi, ammo unga munosabat davr va muallif nuqtai nazaridan har xil bo`lishi mumkin. Mustaqillik yillarigacha temuriylarga munosabatda mafkuraning keskin munosabati yaqqol sezilib turgan bo`lsa, keyingi yillarda tarix sahifalarini yoritishda qarashlar biroz yumshadi. Muhammad Alining «Ulug` saltanat», P.Qodirovning «Ona lochin vidosi» romanlarida Gavharshodbegim obrazi o`zining yangi talqinlari bilan boyiganiga guvoh bo`lamiz. Shunga qaramay, Abdullatif va Gavharshodbegim munosabatlari P.Qodirov talqinida ham murakkabligicha qolgan. Xususan, romanda Gavharshodbegimning Alauddavlani Abdullatifdan ortiqroq suyishi, nihoyat, «Bu yerda o`gay bola bo`lib yashash jonimga tegdi! Alauddavla o`z tug`ilgan shahrida, hamma unga mehribon... Qachongacha momomga mute` bo`lib yurgaymen»<sup>38</sup>, - deyishida Abdullatifning savdoysi mehrsiz o`sgani ham qo`silib fojiasiga sabab bo`lgani anglashiladi. Abdullatifning savdoyi tabiatligi haqida «Majolis-un-nafois»ning yettinchi majlisida shunday yoziladi: Abdullatif mirzo savdoyi mizoj va vasvasiy tab` va devonasor kishi erdi. Mundin o`zga dag`i g`arib badfe`lliqlari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim

<sup>37</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi .-T.:G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994, 24-6et

<sup>38</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi .-T.:G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994, 24-6et

kelur»<sup>39</sup>. Abdullatifdagi savdoyilik ilmiy tilda «psixopatiya» deyiladi. Undagi psixopatiya irsiyat bilan bog`liq bo`lishi mumkin. Chunki u ona tomondan Xalil Sultonning nabirasi bo`lib, Xalil Sulton Mironshoh mirzoning jununvash tabiatidan paydo bo`lgan o`g`il edi.<sup>40</sup> Bu haqda P.Qodirovning «Ona lochin vidosi»<sup>41</sup> asari va P.SHermuhamedovning «Xorazm malikasi yoxud Amir Temurning kelini» badea-romanida ishora qilingan. P.Qodirov bir avloddan so`ng Xalil Sultonning xatti-harakatlari Abdullatifda takrorlanganiga e`tibor qaratadi.

Odil Yoqubov Ulug`bek fojiasining omillarini ko`rsatib o`tar ekan, bu omil birinchi galda, Abdullatifning tarbiyachisi sifatida Gavharshodbegim bilan bog`lanishini ta`kidlaydi. Shu bois Gavharshodbegim qiyofasi salbiylik kasb etadi. O.Yoqubov qahramonlar tasvirida xolislikni saqlashga qancha urinmasin, ayrim mafkuraviy prinsiplardan chekina olmagani Gavharshodbegim va diniy ulamolar tasvirida namoyon bo`ladi. Balki bu ham mafkura bilan kelishuvning o`ziga xos yo`lidir. Chunki tarixiy shaxslar haqida yozuvchi bирyoqlamalikka ega edi degan qarash o`zini oqlamaydiki, roman yozilgan davrda Amir Temurga munosabat o`ziga xos bo`lgani holda asarning biror o`rnida Temurga salbiy fikr bildirilmaydi. Ulug`bekning ilm-fanga qilgan xizmatini ta`kidlash uchun fojiasida mulkdor sinf vakillarining o`rni kuchli bo`lganini bo`rttirish zarurati Gavharshodbegimni faqat qora bo`yoqda tasvirlanishiga sabab bo`lgandir. Romanning qayta ishlangan nashrida ham Gavharshodbegim qiyofasi o`zgarishsiz qoladi.

Sobiq sho`ro tuzimi davrida Ulug`bekning fojeali o`limida Xoja Ahror Valiyning ham qo`li bor degan qarash ilgari surildi. Ammo bu noto`g`ri qarash bo`li, keyingi yillarda ulug` valiy Xoja Ahror to`g`risidagi haqqoniy tadqiqotlarda bu fikrlarning noto`g`ri ekanligi aytimoqda.

<sup>39</sup> Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to`plami. Majolis un -nafois. Toshkent, 13-tom.

<sup>40</sup> Xurshida Haroqulova. Adabiyotda hayot mamot masalasi. Toshkent, 2009-yil. 75-bet

<sup>41</sup> Qodirov P.Ona lochin vidosi. -T.: Sharq, 2001-yil. 25-bet

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul bilan uyushtirilgan suhbatda «Sho`rolar sultanati davrida Xoja Ahror shaxsiyati va merosi nafaqat xalqdan ayro tutildi, balki asossiz,adolatsiz qoralandi. Hattoki, hurmatli yozuvchilarimiz asarlarida ham Xoja Ahrorning obrazi qora bo`yoqlarda tasvirlandi. Bu, sizningcha, ma`naviy tanazzulmi yoki davr siyosatimi?» - deb bergen savoliga munaqqid shunday javob beradi: «- Sho`ro siyosati -eng shafqatsiz, g`irrom va eng makkor siyosat bo`lgan. U davr yoki zamonning emas, ahli zamonning ham qiyofasini o`zgartirib yuborgan. Chunki u yovuzlikka asoslangan, zulm va zo`ravonlikka tayanib ilgarilagan. Butun boshli millatlarni qullik va qaramlikda saqlash uchun siyosat tili bilan nima yolg`on, qanday aldrovlar to`qilmagan deysiz?»<sup>42</sup> - deya javob beradi.

Yozuvchi Abdullatifdagi mehrsizlik ildizini uning ota mehridan uzoqda o`sganligi bilan izohlar ekan, uni to`g`ri asoslab beradi. Tabiiyki, o`z ota-onasi qo`lida tarbiya topmagan farzandning mehri ota-onasi bilan o`sgan bolaga nisbatan ayricha bo`ladi. Bunday farzandda o`z ota-onasiga nisbatan tanqidiy ruh kuchli bo`ladi. Xohlaymizmi-yo`qmi o`z farzandlarimizga bo`lgan munosabatni oilada, nabiralar oldida ham muhokama qilamiz. Bu kabi muhokamalarning ta`sirida nabiraning o`z ota-onasiga nisbatan munosabati o`zgarib borayotganiga ahamiyat bermaymiz. Bu munosabat ota-onaning farzandga qanday munosabatda ekanligi bilan belgilanadi. Abdullatifning Ulug`bekka sovuq munosabati Ulug`bekning Gavharshodbegimga nisbatan munosabatining ham keskinlashuviga sabab bo`ldi. Albatta, Abdullatifga Ulug`bekning munosabatida ham shu ruh saqlanib qoladiki, buni tabiiy deb qabul qilmoq lozim. Shu bois Ulug`bek bir umr ikki farzandiga bir ko`z bilan qaramadi. Bu esa Abdullatifning Ulug`bekka va og`a-inilarning o`zaro adovatiga sabab bo`ldi. Ulug`bekning Abdul`azizga mehri ko`p hollarda o`ziga yov ortishiga ham olib keldi. Aks holda Mavlono Muhiddinday sadoqatli shogird o`z ustozidan yuz burib ketmas edi. Mavlono Muhiddinning

---

<sup>42</sup> Haqqul I.Taqdir va tafakkur. - T.: Sharq, 2007, 305-6et

qarashlaridagi zaiflik, uning Salohiddin zargarning ta'siri ostida ekanligi alohida masala. Fakt shuki, Abdul`aziz uning kuyovini o`ldirdi, qizi Xurshida bonuni zo`rlab haramga soldi. Bu esa, hatto, amirlar orasida qattiq norozilikka sabab bo`ladi. Mirzo Ulug`bek esa tayinli chora ko`rmadi. SHunga qaramay, Ulug`bekning ota sifatidagi iztiroblari o`quvchini hayajonga soladi. Zero, ota-onaning eng zaif nuqtasi farzandidir.

« - Haq taolo shohid, bu mash`um fojiada begunohmen, mavlono. Ammo o`z barmog`ingni o`zing chopas olmas ekansen, ne qilay, o`z pushti kamarimdan bo`lgan farzandim...»<sup>43</sup>. Ulug`bekning Ali Qushchiga aytgan gaplarida davlat hukmdorining emas, noqobil o`g`ilning qilmishidan iztirobga tushgan ota qiyofasi gavdalananadi.

Ulug`bek Abdullatifning xatti-harakatlariga keskin choralar ko`rgani holda Abdul`azizga hamisha yon bosadi.

«Mirzo Ulug`bek sandiqning qopqog`ini yoparkan:

- Qolgani shahzoda Abdul`azizning ulushi bo`lur, -dedi va go`yo bu gapi uchun Ali Qushchidan uzr so`raganday qo`shimcha qildi:

- Bilasen: shahzoda - nogiron, qalbi majruh...»<sup>44</sup>

Ulug`bekni eng taxlikali damlarda ham o`z hayotidan emas, Abdul`azizning taqdiridan tashvish chekishida otalik mehri mujassam. SHuning uchun « - Men o`zimdan qo`rqmaymen, Ali. Haq taolo umrini yaxshidur, yomondur, o`tkardim. Bu noraso dunyo lazzati shunchalik bo`lur. Ammo... pushti kamarimdan bo`lgan bu farzandimning taqdiri ne bo`ladi? Og`a-ini bir-biriga ne qiladi? Buni o`ylasam yuragim eziladi, zero uning jismi nogiron, qalbi majruh, Ali!»<sup>45</sup>

<sup>43</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-yil, 96-bet.

<sup>44</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-yil

<sup>45</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-yil, 19-bet.

Ulug`bekning ota sifatidagi iztiroblarini to`g`ri tushunmoq lozim. Ammo «jismi nogiron, qalbi majruh» Abdul`aziz tufayli Ulug`bekning hayoti taxlika ostida qoldi, ishonchli beklaridan ayrildi, Abdullatif bilan yovlashdi. Ota-onas farzandining aybini ko`rib tursa-da, agar unga boshqacha mehr qo`ygan bo`lsa, undan ham fazilat axtarishga harakat qiladi. Uni ayagisi, unga kelgan balolarga o`zi qalqon bo`lishni istaydi. Mirzo Ulug`bek ham shunday: unda Abdul`azizga nisbatan otalik mehri Abdullatifga qaraganda kuchliroq. Odatda, ota-onalar kichik farzandlarini kattalariga ko`ra ko`proq suyadilar. Bu holat juda ko`pchilik oilalarga xos. Ammo tarbiyaning bu usuli farzandlar orasidagi ziddiyatlarga ham sabab bo`ladiki, buni ko`p hollarda noto`g`ri tizimning oqibati deb o`ylagimiz kelmaydi. Chunki har bir farzandning ota-onasida o`z ulushi bor. «O`z qiblagohining irodasi farzand uchun farzi ayn» ekanligini tushunmagan Abdullatif esa yetarlicha topmagan e`tibori, qonmagan mehri tufayli tarixda ham dog` bo`larli fojalarga sabab bo`ldi. Salohiyatli lashkarboshi, shijoatli inson bo`lgan Abdullatifning qilmishi darhaqiqat kechirib bo`lmasdir.

Yozuvchi ko`p o`rinlarda Abdul`aziz va Ulug`bek obrazlarini yonma-yon tasvirlaydi. Farzandlarga nisbatan munosabatning bir xil emasligi Abdullatifning sevimli farzand bo`lishiga monelik qildiki, bu yana Lyusen Kerenning fikrlarini tasdiqlaydi.

Ozgina xato, bee`tiborlik ortidagi parokandalik avlodlarga ham saboq bo`lgusidir. Yozuvchi qahramonlar tasvirida biryoqlamalikka yo`l qo`ymaydi. Realistik qudratning kuchi adib qalamida sayqallana boradi. Natijada, Mirzo Ulug`bekning ham murakkab qiyofasi ochila boradi, inson farzandi sifatida xatokor bo`lishi mumkinligi anglashiladi. Abdullatif bilan yuzma-yuz kelish sahnalarida shahzodaning yuragidagi kin va adovatlar ayni otadan olinmagan mehrning qahrga aylana borganligini ko`rsatadi:

« - Balli sizday padarga! Sizning yaxshililingizni bilurmiz. Tarnob jangida jonbozlik ko`rsatgan kim? Men! Ammo muzaffar yorlig`i kimning nomiga bitildi? Suyukli farzandingiz - Abdul`aziz...

-Abdul`aziz o`z jigargo`shangdur... - Qulluq. Ixtiyoriddin qal`asidagi bobom Amir Temurdan qolgan tillalarimni tortib olgan kim? Yana siz valine`mat padarim! Ne chora? Mute farzand, indamay bosh egdik va lekin bas!»<sup>46</sup>.

Roman haqidagi tadqiqotlarda Ulug`bek obrazi haqida ko`p gapiriladi. Uning olim sifatidagi xizmatlari ta`kidlanadi, shunday otani o`ldirtirgan nobakor farzand xususidagi fikrlar ham talaygina. Tarixiy asarlarda ham mash`um voqeaga o`rinli munosabatlar bildirilgan. Toj-taxt vasvasasi shahzodani baloga giriftor qilgani yoziladi-yu, shaxsiy munosabatlarda Ulug`bek tutgan pozitsiya e`tiborsiz qoldiriladi. Axir valiahd bo`lishi aniq va bunga yetarli asoslar ham bo`lgan bir paytda hokimiyatgagina ishtiyoq uning padarkushligiga sabab bo`lmagandir. Fojiaga omil, avvalo, oilada yetilgan. Qolgan narsalar qo`shimcha sabab xolos. Odil Yoqubov romanda yuzaga kelgan konflikt va intrigalarni asosli dalillaydi, ayniqsa, keskin vaziyatlarda tarixiy haqiqatga xilof ish tutishdan saqlanadi, u o`z oldidagi mas`uliyatni chuqur anglab masalaga yondashadi. Darhaqiqat, «...san`atkor tarixiy mavzuni har tomonlama keng yoritdi, murakkab, psixologik xarakterlar yaratdi. O`sha davr ruhini ishonarli ko`rsatdi, obrazlar individualligiga alohida e`tibor qaratdi». <sup>47</sup>

XX asr o`zbek adabiyotiga nazar tashlaganda, M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» tragediyasining ham ayricha ahamiyatini kuzatish mumkin. Fojia va roman orasida talay umumiyliliklar bor. Har ikki asarda ham Ulug`bek hayotining so`nggi davri qalamga olinadi, tragediyadagi tarixiy faktlar romanda ham tilga olinadi, bir qancha tarixiy shaxslar bu yerda ham ishtirok

---

<sup>46</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 98-bet.

<sup>47</sup> Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik.- T.: Sharq, 2004, 192-6et

etadi. SHu bilan barobar romandagi tarixiy shaxslarning badiiy talqini, o`zining uslubiy-g`oyaviy yo`nalishi bilan tragediyadan farq qiladi. «Ulug`bekning fojiasi shundaki, - deb yozadi U. Normatov, - u egalik qilgan moddiy meros - toj-taxtning istiqboli zabun, vorislari nobakor. O`z o`g`lidan tortib qo`l ostidagi barcha mansabdorlari, ishongan tog`larigacha xiyonatkor bo`lib chiqadilar. Bu allomaning baxti shundaki, u to`plagan, yaratgan ma`naviy meros - nodir kitoblarning munosib vorislari, ishongan, sadoqatli, jonkuyar shogirdlari bor»<sup>48</sup>.

Insonning asli ikki yo`l orasida turganida bilinadi. O`sha og`ir sinov paytida maslakdosh shogirdlar orasida ham saralanish yuz beradi, mavlono Muhiddindek olim mudhish voqealar oldida dovdirab, o`z ustozidan yuz o`giradi, e`tiqodiga xiyonat qiladi. Inson ruhiyatidagi har qanday o`zgarish uning qiyofasida aks etadi. Yozuvchi mavlono Muhiddin obrazi orqali roman voqealarini aniqlashtiradi, undan tashqi va ichki konfliktlarni ochishda, Ali Qushchining sadoqatini tasdiqlashda foydalanadi. Mavlono Muhiddin qanchalik tebranuvchan obraz bo`lmasin, u Abdullatifning padarkushligini yuziga ayta olgan yagona inson. «Boshi toshga tegib yorilgan, ust-boshi qip-qizil qon bo`lgan mavlono Muhiddin esa hamon talpinar, hamon xirillab baqirar edi:

« - O`tgatashlanglar bu padarkushni, musulmonlar! O`tga tashlanglar!..

...Shahzodaning ko`z oldi qorong`ilashib yeri ko`k charxpalak bo`lib ketdiyu, yiqilib tushishdan qo`rqib, shayxning qo`lidan ushlab qoldi»<sup>49</sup>. Yozuvchi qo`rquv inson ruhiyatini muvozanatdan chiqarib yuborishini ikki obraz vositasida ko`rsata oldi. Buning biri - mavlono Muhiddin, ikkinchisi - Abdullatif. Mavlono Muhiddindagi qo`rquv shaxsga haddan ziyod muteligi,

---

<sup>48</sup> Normatov U. Odil Yoqubov. XX asr o`zbek adabiyoti. - T.: O`qituvchi, 1999, 419-6et

<sup>49</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 265-bet.

o`z qarashiga ega emas, qat`iyatsizligidan kelib chiqsa, Abdullatifdagi qo`rquv aksincha, boshqalarni o`ziga mute qildirish istagidan kelib chiqqan.

Ulug`bek - ma`rifatli inson, shuning uchun u hamma narsaga oddiy odam qatori emas, ancha pog`ona yuqori turib nazar tashlaydi. Uning fojiasi ham hamma qatori bo`lolmaganida. Yozuvchi Abdullatifning telba holatiga Ulug`bekning so`nggi damlarini qarshi qo`yar ekan, insonning asl qiyofasi hayot va o`lim chegarasida ochilishini yana bir bor isbotlaydi. Ulug`bek yasovulning ko`zlariga tik boqib: «Shahzodai juvonbaxtga borib aytgaysen: Muhammad Tarag`ay taxtga o`ltirmoqqa emas, Makkai mukarramaga yo`l tutgandir. Bu yaxshi niyatni ko`ngliga jo qilib, hajga otlangan osiy bandaga shon-shavkat darkor emasdur, o`g`lon!»<sup>50</sup>-, deyishida ilojsiz qolganda ham temuriy Muhammad Tarag`ay ekanligi, xatolarini tan olishga qodir osiy banda, shon-shavkatga muhtoj bo`lmagan mard inson ekanligini ko`rsata oladi. Ayni vaqtda «Vo darig`! Boshimda tag`in ne savdolar bor?.. Shahzodaga ne kerak? Movarounnahrdan haydadi. Toju taxt, saltanat - barini oldi. Alhol o`z holimga qo`ysa bo`lmasmu?..»<sup>51</sup>- deya o`kinchini sirtiga chiqarmay, o`zgalar oldida qadrini baland tutadi.

Ulug`bek temuriylar orasidan yetishib chiqqan ma`rifatli shohlardan. U hayotning tub mazmunini yaxshi anglaydi. Har qanday jaholat va tubanlikka ilm orqali, ma`rifat kuchi bilan barham berish kerak deb o`ylaydi va shuning uchun ham “boshidagi toj, tagidagi taxt ilmu funun uchun darkor” degan e`tiqod bilan yashaydi. Ulug`bekning amaliy faoliyati ham uning mana shu buyuk aqidasini to`la quvvatlaydi. Lekin zamon va davr uning ideallarini chilparchin etmoqchi. Mana pushtikamaridan bo`lgan o`z farzandi unga qarshi qilich qayrab, lashkar tortib kelmoqda. Ulug`bekdan boshqa bir temuriy shahzoda bo`lganida, balki allaqanday tashvishlarga tushmasdan jangga hozirlanar, butun diqqat-e`tiborini raqiblarini, dushman o`z farzandi bo`lsa

<sup>50</sup> Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 140-141-bet.

<sup>51</sup> O'sha asar, 141-bet

ham yakson qilishga qaratar edi. Tarixda bunga o`xshash voqealar kam bo`lmagan, albatta. Lekin “falakiyot ilmini idrok eta olgan o`tkir tafakkuri bilan koinot sirlarini ochib, yangi yulduzlar kashf etgan allomalar sarboni” bunday razolatli ishga qiyalmasdan kirishaverishi mumkin emasdi. Adib buning sabablarini tahlil etishga kirishgan sari Ulug`bek xarakterining eng muhim qirralari asta-sekin ravshanlasha boradi.

“Men sultanatdan ayrilishdan qo`rqmaymen,-deydi Mirzo Ulug`bek. – Faqat bu elga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan boyligim-madrasayu rasadxonam, nodir xazinam-to`plagan kutubxonam va nihoyat yaratgan asarlarim-barchasi poymol bo`lishidan qo`rqamen. Ha, faqat shundan qo`rqamen. Tag`in bir narsadan –kelgusi avlodlar bandai ojizdan hazar qilmasmu, deb qo`rqamen. Mirzo Ulug`bekday koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni da`vo etgan mavlono; hayhot, oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohibalariday sultanatni deb, o`z pushtikamaridan bo`lgan farzandi bilan toju taxt talashibdur-da, degan nom qoldirmoqdan qo`rqamen mavlono Ali!”-Ko`rinadiki, tarix Ulug`bekni ma`rifat va xurofot jangi qa`riga uloqtirmoqchi.

Ulug`bek juda og`ir kechinmalar girdobida qoladi. Zotan, mana shu vaziyatdagi ichki kechinmalarsiz Ulug`bek xarakteri mantiqini to`la asoslash ancha mushkul edi. Shuning uchun ham adib asarning dastlabki boblaridan to Ulug`bek vafotigacha uning hissiy kechinmalari tasviriga keng o`rin beradi. Bu yerda shuni ham aytish kerakki, romandagi boshqa personajlar xarakteri, xususan Abdullatif obrazi mantiqi ham hissiy kechinmalar tasviri orqali ochib beriladi. Odil Yoqubov romanda bu usuldan mohirlilik bilan foydalana olgan.

Ulug`bek Abdullatifning Samarqandga yaqinlashganligi haqidagi xabarni eshitgandan so`ng og`ir xayollarga cho`madi. Lekin hammadan ko`proq “nodir xazina-to`plagan kutubxonasi”, ilm ahlining taqdiri haqida

bosh qotiradi. Kutubxonaning qismati, olimlar taqdiri nima kechadi? Bu jumboqlar olimning qalbini kemiradi.

Shunday qilib, Ulug`bek ma`naviy xazinasining taqdiri romandagi asosiy masalaga ko`tariladi va asardagi butun voqealar, xarakterlar o`rtasidagi kurashlar shu g`oyaviy markaz atrofida birlashadi. Ulug`bek sevikli shogirdi Ali Qushchini huzuriga chaqirib “Movarounnahr osmonini qora bulutlar” qoplay boshlaganini, “shahzoda Abdullatif Jayhundan o`tib, Keshga yaqinlashib” qolganini aytarkan, asosiy muddaoga o`tib deydi:

“-Seni bu dargohga chaqirmoqdan muddao shukim, qirq yil sultanat tebratib, orttirgan boyligim, rasadxona va kutubxonam, bitilgan va hali nihoyasiga yetmagan risolayu kitoblarim-barchasi sening qo`lingdadur. Alqissa, bu xazinani johil gumrohlardan, mahdud mutassiblardan asrab qolmoq... yolg`iz sening ixtiyoriningdadur...”.

Bizningcha, buyuk olim Ulug`bekka xos bo`lgan donishmandlik, ulug`vorlik, mutafakkirlik fazilatlarini yozuvchi romanda juda jonli manzaralarda ko`rsatib bera olgan. Bu jihatdan yozuvchiga uncha e`tiroz bildirishga o`rin bo`lmasa kerak.

Romanning boshlanishida shunday bir epizod bor. Ulug`bek shahzoda ko`nsa “ilmu idrok bilan bamaylixotir” shug`ullanishga qaror qilib, “vafosiz hokimiyat, bu toju taxtdan bajonu dil” voz kechmoqchi bo`ladi. “Basharti shahzoda uning tilagini hurmat qilsa, o`z ixtiyori bilan sultanatdan voz kechib, o`zini bus-butun ilm-fanga bag`ishlashni ko`ngliga tugib qo`ydi”. U ana shunday xayol bilan kechqurun boshini yostiqqa tashlaydi. To`g`ri, Ulug`bek asarning bundan keyingi boblardan birida Abdullatifga bu fikrini oshkor aytadi. Biroq yozuvchi bu voqeа tasviriga ancha keyin kirishadi va undan Abdullatif xarakteridagi qabohatni ochish uchun ustalik bilan foydalangan.

Lekin Ulug`bek “yuragini larzaga solgan tashvishlar girdobida”, garchi toj-taxtdan voz kechishga ahd qilgan bo`lsa hamki, u temuriy shahzoda. Buning ustiga xalq qo`lida sultanat va lashkar bor. Agar yuqoridagi maqsadni

u hech ikkilanmasdan ado etganda, bu voqea tasviri o`quvchini uncha ishontirmasligi mumkin edi. Shuning uchun “subhidam saroya yig`ilgan sarkardalar uni uyg`otishgach, Mirzo Ulug`bek ko`ngliga tukkan ahdu paymonini eslab ham o`tirmadi. Oltin kamarini beliga mahkam bog`lab, bobosi Amir Temur in`om etgan tilla bandlik po`lat shamshirini taqib, jang-jadalga shaylanadi. Mirzo Ulug`bekning irodasidan zo`rroq bir kuch taxt va saltanat uchun kurashga da`vat etdi. Mirzo Ulug`bek bu kuchga bo`yin egdi...”.

Tarixiy roman to`g`risida fikr yuritgan Oybek shunday deb yozadi: “Haqiqiy realistik san`atkor bilan ilmiy metodologiya ila qurollangan tarixchi ma`lum nuqtalarda uchrashuvi kerak. Ularning tarixiy hayotni tekshirishlari, hodisa va voqealarni tanlashdagi yo`l va priyomlari qanchalik ayrim bo`lmasin, oxirgi paytda, so`nggi natijada ular uchrashuvlari lozim, ya`ni, tarixchining haqiqati ila san`atkorning haqiqati muvofiq, hamohang bo`lishi kerak. Qisqacha aytganda, badiiy haqiqat tarixiy haqiqatga mos kelsin”. Aks holda esa har qanday tarixiy asarning g`oyaviy-badiiy qudratiga shikast yetadi, xarakter mantiqi buziladi. Odil Yoqubov “Ulug`bek xazinasi” romanini yozishda bu masalaga har tomonlama jiddiy munosabatda bo`lgan. Ulug`bek xarakterini yaratishda alloma yashagan davr, tarixiy voqelikni, uning hayoti, ma`naviy - ruhiy olami, xarakter belgilariga doir faktlarni o`rganib, o`zlashtirib qalam yuritgan. Tarixdan ma`lumki, Ulug`bek davlat arbobi sifatida emas, balki ulug` olim sifatida shuhrat qozongan. Ulug`bek o`zining asosiy diqqat-e`tiborini, kuch-quvvatini ilm-fan ravnaqiga, yurt obodonligiga yo`naltiradi.

## X U L O S A

Odil Yoqubov “Ulug`bek xazinasi” romanida buyuk tarixiy shaxslarga daxldor bo`lgan davr haqiqatini nozik ilg`ay olgani uchun ham umriboqiy asar yarata oldi. Chunki, Ulug`bek o`zidan oldin o`tgan podsholardan tubdan farq qilib, toju-taxt oltinu-kumushlarni emas, balki nodir kutubxona, rasadxona va yozgan ilmiy asarlarini haqiqiy xazina deb tushungan. Romanda Ulug`bek davrining ana shu otashin tarixiy haqiqati o`z badiiy ifodasini topgani uchun hamadolatli va ma`rifatparvar shoh adabiy tipi yaratilgan.

Anglashiladiki, yozuvchi Ulug`bek davri va uning shaxsiga aloqador bo`lgan tarixiy ma`lumotlarni obrazli o`zlashtirgan. Natijada o`ziga xos badiiy manzaralarni shu qadar ishonarli qilib chizib berganki, obrazli o`zlashtirilgan hayotiy fakt va hodislarni kitobxon o`sha davr haqiqati tarzida juda katta mammuniyat bilan qabul qiladi.

Yozuvchi Ali Qushchini o`z davri olimlarining adabiy tipi yuksakligida yaratishga intilib, uning turmush tarzi va ilmiy faoliyati tasvirida, Ulug`bek davri ilmiy muhitining, ijtimoiy shart-sharoitlarining qirq yil davomida ustod bilan birgalikda ishslashning nurli izlari qolganini uning xotiralarini qayta jonlantirish jarayonida mohirlik bilan ochib beradi. Bu vosita shogird xotirasida ustodlar buyukligi, ularning ilm-fan ravnaqi yo`lidagi rahnamoliklari hamda ilmlar xazinasining egasi bo`lib yetishgan shogirdlar sadoqatining haqqoniy mezonidir.

Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” asarini olib qaraydigan bo`lsak, unda yurtni boshqarish, hukmdorning atrof-muhitga e`tibori mansabidan ketayotgan hukmdorga esa atrofdagilarning munosabati masalasi, farzand tarbiyasi insonning axloqiy fazilatlar xususida alohida fikrlar berilganini ko`ramiz. Bu asar yaratilgandan buyon olimlar, tarixchilar, adiblar, jamoatchilikni e`tiborini o`ziga tortib kelgan. Tarbiyaviy qadriyatlar haqida

fikr yuritar ekanmiz, bu asar barcha davrlarda ham ta`lim tarbiya sohasida namuna bo`lib keldi va shunday bo`lib qoladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I. Ma`naviy yuksalish yo`lida.-T.: O`zbekiston, 1998. 480-B.
2. Karimov I. Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2008.
3. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T.: O`zbekiston, 2000.
4. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O`zbekiston, 2000. 77-B.
5. A.Zayniddinova Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, 1999-yil, 92-B
6. Berdimurodov A. “Bilmadim,ne edi gunohim?” // “O`zbekston adabiyoti va san`ati” gazetasi , 2008 -yil, 12 -dekabr
7. Q.Yo`ldoshev, V.Qodirov, J. Yo`ldoshbekov. Adabiyot (9-sinf uchun darslik-majmua)-Toshkent, 2010. 300-B.
8. Karimov H. Hozirgi o`zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiysi (70-80 yillard).T.: 1994
9. Keren Lyusen. Ulug`bekning astronomiya maktabi // “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi , 2009 yil, 10 iyul.
10. Qodirov P.Ona lochin vidosi. -T.: Sharq, 2001-yil. 210-B
11. Quronov d. Adabiyotshunoslikka kirish. Andijon. “Hayot”nashriyoti, 2002. 208-B.
12. Qo`shjonov M. Saylanma. Toshkent, Adabiyot va san`at nashriyoti. 1982. 1-tom. 360-B.
13. Qo`shjonov M. Adib ma`naviyati mustaqillik xizmatida // “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi, 1993. 11 iyun.
14. N.Karimov va boshqalar. XX asr adabiyoti tarixi. Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti, 1999 yil, 542-B.
15. Normatov U. Odil Yoqubov. XX asr o`zbek adabiyoti. - T.: O`qituvchi, 1999, 419-6et
16. Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994-yil, 330-B
17. Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1974-yil, 318-B
18. Pirmat Shermuhamedov. Istiqbolni o`ylab ( Adabiy-tanqidiy maqolalar)-Toshkent, 1987. 186-B.
19. Rasulov A. Badiylik - bezavol yangilik.- T.: SHarq, 2004, 232-B

20. S.Mirzayev, S.Shermuhamedov. Hozirgi o`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, “O`zbekiston”, 1993 yil, 421-B.
21. S.Mirzayev. Saylanma.(O`zbek romanchiligi tarqqiyoti) -Toshkent, 2007-yil, 324-B
22. Samandarov I. O`zbek tarixiy romanlarida tarixiylik. . T.: 1992
23. Safiy Faxruddin Ali. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). (Tarjimon: Domla Xudoybergan ibn Bekmuhammad (XIX asr). Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriiddin Umrzoq). T.: Abu Ali ibn Sino, 2004, 352-B.
24. Temur va Ulug`bek davri tarixi. (So`zboshi muallifi: O`zR FA akademigi A.Asqarov).-T.: Qomuslar Bosh tahririysi, 1996, 421-B.
25. To`rayev D. Hozirgi o`zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi ( 60 - 80-yillar). T.: 1994
26. U.Normatov. Yangi o`zbek adabiyoti. (O`quv qo`llanma)-Toshkent, “Universitet”, 169-B.
27. Ulug`bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent, 2006-yil, 198-B.
28. Haqqul I.Taqdir va tafakkur. - T.: Sharq, 2007, 321-B
29. Xurshida Haroqulova. Adabiyotda hayot mamot masalasi. Toshkent, 2009-yil. 215-B
30. Sharafiddinov O. Dovondagi o`ylar. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2004, 526-B.
31. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Toshkent, “Sharq”, 2004, 637-B.
32. Shoira Isayeva .“Ulug`bek xazinasi” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri // “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2/2001 yil, 66-67-betlar